



VATANPARVAR

MILLY ARMIYAMIZ

XISTONNING MUSTAHKAM

● Gazeta 1992-yilning 24-iyul

lagan ● 2023

4-5 INSON QADRI –
USTUVOR MEZON

7 CHEGARA
QO'SHINLARI

10 VATANNI SEVMOQ
ISTASANG...



YANVAR

VATAN HIMOYACHILARI KUNI



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ
HAQIMIZDA

@vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

O'ZBEKISTON PREZIDENTI MUDOFAA SANOATI MAJMUALARI BILAN TANISHDI

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni
Shavkat Mirziyoyev 11-yanvar kuni Mudofaa sanoati agentligining Toshkent viloyatida
joylashgan ishlab chiqarish klasteriga tashrif buyurdi.**

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Qurolli Kuchlarimizni isloq qilish va ularni zamonaviy talablarga to'liq javob beradigan, Yangi O'zbekistonning mustaqilligi va suvereniteti, xalqimiz xavfsizligi va farovonligini kafolatli ta'minlashga qodir yangi armiyaga aylantirish bo'yicha tizimli choratadbirlar ko'rilmogda.

Xususan, keyingi yillarda qo'shinlarning tezkor va jangovar tayyorgarligi samarasini va sifatini oshirish, harbiy xizmatchilarining malaka va ko'nikmalarini yuksaltirish uchun zamonaviy sharoitlar yaratish maqsadida zarur infratuzilmaga ega bir qator o'quv poligonlari barpo etildi va bu boradagi ishlar izchil davom ettirilmogda.

Shu bilan birga, bugungi kunda yangi bosqichga ko'tarilayotgan mudofaa sanoatini modernizatsiya qilish va salohiyatini oshirishga ustuvor ahamiyat qaratilmogda. Aynan shu maqsadda o'tgan yilning yanvar oyida Prezident Mudofaa sanoati agentligini Mudofaa vazirligi tizimiga o'tkazish va uning faoliyatini yanada rivojlantirish yuzasidan topshiriq bergan edi.

Agentlik tomonidan zarur harbiy texnik mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish, zamonaviy harbiy texnikalarni xarid qilish va qo'shinlarga yetkazish hamda mayjud quroq-aslaha namunalarini modernizatsiya qilish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi.

Bugungi tashrif davomida Prezidentimizga Mudofaa sanoati agentligining ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha qilinayotgan ishlar va kelgusi rejalar to'g'risida batafsil axborot berildi.

Davlatimiz rahbarining topshirig'iga muvofiq, qisqa muddatda Mudofaa vazirligining bir nechta texnik bo'linmalari negizida keng ko'lamli qurilish ishlari bajarildi, mavjud obyektlar mukammal ta'mirlandi va rekonstruksiya qilindi. Klaster hududiga Mudofaa vazirligining texnikani ta'mirlash zavodi va Markazi avtomobil texnikasini saqlash bazasi ko'chirildi.

Yangi klaster hududida joylashgan korxonalar o'zaro integratsiya qilinib, ularning yagona ta'mirlash sexlari tashkil

qilindi. Mazkur korxonalarda qurolyarog' va harbiy texnika, radiolokatsiya qurilmalari, optik va elektron-optik asboblar, o'qotar va artilleriya qurollari modernizatsiya qilinmoqda hamda metallarga yuqori anqlikda ishlov berilmoqda.

Davlatimiz rahbari ushbu quvvatlar faoliyati bilan tanishib, sohaga ilg'or texnologiyalarni keng jalg qilish, yangi ish o'rinnarini yaratish zarurligini qayd etdi, korxonalar faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

Sanoat tarmoqlariga, shu jumladan mudofaa sanoatiga "yashil" texnologiyalarni keng joriy qilish bo'yicha belgilangan vazifalarga muvofiq hamda elektr energiyasini iqtisod qilish maqsadida klaster hududida quyosh panellari o'rnatalgan. Bu ishlab chiqarish jarayonlarining elektrga bo'lgan ehtiyojining katta qismini muqobil manbalar hisobidan ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, davlatimiz rahbariga Mudofaa sanoati agentligining yangi klasteridagi ishlab chiqarish

quvvatlari tomonidan ta'mirlangan va modernizatsiya qilingan harbiy texnika va quroq-yarog' namunalari namoyish etildi.

Mudofaa sanoati mahsulotlarining taqdimoti chog'ida davlatimiz rahbariga "Kelajak askari" majmuasi tarkibiga kiruvchi maxsus aslaha va anjomlar to'plami amalda namoyish etildi. Ushbu to'plam mamlakatimiz mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning xususiyatlari jahoning yetakchi ishlab chiqaruvchilari tomonidan tayyorlangan muqobillaridan qolishmaydi.

Tashrif chog'ida Oliy Bosh Qo'mondon yangi turdag'i harbiy mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha korxona faoliyatiga start berdi. Mahsulotlarning yuqori sifatini ta'minlash, muhandis va mutaxassislar malakasini oshirish zarurligini ta'kidladi.

Yakunda Prezidentimiz mutasaddilarga mudofaa sanoati korxonalarining ishlab chiqarish imkoniyatlarini yanada kengaytirish yuzasidan aniq topshiriqlar berdi.

O'ZA

O'ZBEKISTON PREZIDENTI XAVFSIZLIK KENGASHINING KENGAYTIRILGAN YIG'ILISHINI O'TKAZDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida 12-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining Qurolli Kuchlar va harbiy-ma'muriy sektorlarning 2023-yildagi faoliyati yakunlari va yaqin istiqbolga mo'ljallangan vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Majlisda Xavfsizlik kengashi a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiradigan vazirlik va idoralar rahbarlari, okruglar qo'mondonlari, harbiy-ma'muriy sektorlar rahbarlari - Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari hamda jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

Yig'ilish avvalida davlatimiz rahbari mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarni rivojlantirish borasida 2023-yilda amalga oshirilgan ishlarning natijalarini tahlil qildi.

Vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining bu yo'nalishdagi faoliyati tanqidiy ko'rib chiqildi, mutasaddi rahbarlarning hisobotlari tinglandi.

Harbiy xizmatchilar va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirish, milliy armiyamizni yanada rivojlantirish va mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, harbiy-ma'muriy sektorlar va mudofaa sanoati faoliyati samaradorligini oshirish masalalari muhokama qilindi.

Globallashuv jarayonlari hamda odamlar, aynilsa yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi o'ta murakkab sharoitda harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotgani alohida ta'kidlandi.

- Bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo'lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur, - dedi Prezidentimiz.

Shu munosabat bilan davlatimiz rahbari yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini qayta ko'rib chiqish yuzasidan tegishli mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi. Navqiron avlod vakillarining yurtimizdag'i islohotlar jarayonidagi ishtirokini oshirish, ular o'z intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yogha chiqarishi uchun sharoitlar yaratish muhimligiga e'tibor qaratdi.

Hozirgi kunda Qurolli Kuchlarning zamonaviy infratuzilmasi negizida va monomarkazlarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlar yo'lga qo'yilgan. Davlatimiz rahbari bu yo'nalishdagi tadbirlarni kengaytirib, yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitish va mehnat faoliyatini boshlashi uchun subsidiyalar o'tildi.

orgali qo'llab-quvvatlash zarurligini qayd etdi.

Shuningdek, yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash maqsadida mediamakonda olib borilayotgan harbiy-vatanparvarlik ruhidagi ishlarni kuchaytirish vazifasi qo'yildi.

Majlisda mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlash, qo'shinlarning harbiy tayyorgarligini oshirish hamda harbiy ilm-fanni rivojlantirish masalalari ham ko'rib chiqildi. Oliy Bosh Qo'mondon jangovar tayyorgarlik tizimini innovatsion va ilmiy yondashuvlar asosida yanada takomillashtirish, axborot almashinuvni va qarorlar qabul qilish bo'yicha zamonaviy harbiy va ilmiy ishlarning amalga keng joriy etish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Yig'ilishda axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash milliy xavfsizlik sohasidagi muhim vazifa bo'lib qolishiga urg'u berildi.

Bu borada Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qilish organlarini raqamlashtirishni jadallashtirish, vazirlik va idoralarning barcha axborot resurslarini yagona xavfsiz axborot makoniga birlashtirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Milliy armiyamizda va xalqimiz o'rtasida kiberxavfsizlik borasidagi ogohlilikni va raqamli madaniyatni oshirish bo'yicha tizimli ishlarni yo'lga qo'yish yuzasidan eng muhim vazifalar belgilab olindi.

Xavfsizlik kengashi yig'ilishida mamlakatimiz mudofaa sanoati majmuasini yanada rivojlantirish, davlat chegaralarini qo'riqlash tizimini takomillashtirish, jamoat xavfsizligini ta'minlash, favqulodda vaziyatlarni prognoz va monitoring qilish, avariya va texnogen halokatlarning oldini olish borasidagi ishlarni samaradorligini oshirish bo'yicha ham dolzarb vazifalar ko'rsatib o'tildi.

Prezidentimiz harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularga g'amxo'rlik ko'rsatish davlat siyosatining muhim yo'nalishi bo'lib qolishini qayd etdi.

Yig'ilishda yakunida davlatimiz rahbari barcha harbiylarni, butun xalqimizni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni bilan samimiy tabriklab, ezgu tilaklarini bildirdi.

O'ZA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI TASHKIL ETILGANINING 32 YILLIGI VA VATAN HIMOYACHILARI KUNI MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI

Hurmatli askar va serjantlar,
ofitser va generallar!

Muhtaram Qurolli Kuchlarimiz
faxriyrlari!

Qadrli vatandoshlar!

Siz, azizlarni, ko'p millatli butun
xalqimizni mamlakatimiz hayotidagi
muhim sana - O'zbekiston Qurolli
Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi
hamda Vatan himoyachilari kuni bilan
chin qalbimdan samimiyy muborakbod
etaman.

**Xalqimiz sizlar kabi mard va jasur
harbiyalarimiz timsolida Vatanni
himoya qilishdek dunyodagi eng
ulug' ishni sharaf bilan ado etib,**
**Jaloliddin Manguberdi, Amir
Temur, Bobur Mirzo singari buyuk
ajdodlarimizning shonli an'analarini
munosib davom ettirib kelayotgan
ona yurtimizning chinakam
qalqonlarini ko'radi.**

**Mana shu qutlug' ayyomda
barchamiz sizlarning metin
irodangiz, jangovar ruhingiz va
shiddatingizga qarab, Vatanimiz
mustaqilligi, xalqimizning tinch
va osoyishta hayoti, sarhadlarimiz
daxlsizligi mustahkam ishonchli
qo'llarda ekanini yanada chuqur his
etmoqdamiz.**

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonni
barpo etish yo'lida erishayotgan barcha
yutuq va marralarimizda Qurolli
Kuchlarimiz va ularning saflarida o'z

vazifasini sidqidildan ado etayotgan
ming-minglab harbiylarimizning
munosib hissasi bor, desak, ayni haqiqatni
aytgan bo'lamiz.

Xalqimizning asl o'g'lonlariga
xos fazilatlar ulug'lanadigan mana
shu unutilmas lahzalarda Vatan
oldidagi burchini bajarish chog'ida
qahramonlarcha halok bo'lgan botir
jangchilarimizni yod etib, ularning
o'limas xotirasini oldida ta'zim qilamiz.

Ishonchim komil, ular o'zlarining
jasoroti va o'chmas nomlari bilan el-
yurtimiz qalbida hamisha barhayot
yashaydi, jangovar saflarda ularning o'mi,
aziz xotirasini hech qachon yo'qolmaydi.

Muhtaram yurtdoshlar!

Keyingi yillarda "Xalq va armiya
bir tan-u bir jondir" degan ezgu g'oya
asosida Qurolli Kuchlarimizning jangovar
salohiyatini oshirish, harbiy qurilish
sohasini tubdan modernizatsiya qilish
bo'yicha olib borayotgan islohotlarimiz
natijasida milliy armiyamizda chuqur
sifat o'zgarishlari yuz bermoqda, uning
saflarida xizmat qilish tom ma'noda shon-
sharaf ishiga ayanib bormoqda.

Bu borada, ayniqsa, yoshlarni harbiy-
vatانparvarlik ruhida tarbiyalashga
qaratilgan ishlarimiz muhim ahamiyatga
ega bo'limoqda.

Bugungi kunda harbiy
xizmatchilarimizning professional
mahorati va obro'-e'tibori jahon
miyosida ham yuksalib bormoqda.

Buni mamlakatimiz Qurolli Kuchlari
vakillarining nufuzli xalqaro harbiy
musobaqlarda faol ishtirot etib, faxri
o'rinnarni egallab kelayotgani misolida
yaqqol ko'rish mumkin.

Harbiy xizmatchilar, ularning oila
a'zolari va faxriylarni ijtimoiy himoya
qilish bo'yicha ham kompleks chorat-
dibirilar amalga oshirilmoqda.

**Ana shunday sa'y-harakatlarimiz
hamda milliy armiyamiz va
xalqimizning faol hamkorligi
tufayli Qurolli Kuchlarimiz
mamlakatimiz taraqqiyoti, tinchligi
va barqarorligining ishonchli
kafolatiga, chinakam jasorat va
matonat maktabiga aylanmoqda, deb
aytishga barcha asoslarimiz bor.**

Qadrli do'star!

Dunyo miyosidagi hozirgi o'ta
murakkab vaziyatda mamlakatimiz
xavfsizligi va manfaatlarini ishonchli
ta'minlash yanada dolzarb vazifamizga
aylanmoqda.

Shuni hisobga olgan holda,
"O'zbekiston - 2030" strategiyasida
mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy
yaxlitligini, jamiyatimizda tinchlik va
totuvlikni ta'minlash, yurtimiz mudofaa
qobiliyatini yanada mustahkamlash
va Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirish
masalalari ustuvor yo'nalişlar etib
belgilandi.

Shu asosda mamlakatimizning harbiy-
ilmiy va ishlab chiqarish salohiyatini

kuchaytirish, Qurolli Kuchlarning
jangovar shayligini oshirish, ularni
zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika
bilan ta'minlash, qo'shinlar faoliyatiga
raqamli texnologiyalarni keng joriy
etishga yanada ulkan ahamiyat qaratamiz.

Buyuk Amir Temur bobomiz
aytganlaridek, **g'alaba taqdirini
avvalo qo'shining jangovar ruhi va
tayyorgarligi, ma'naviy qudrati va
mustahkam irodasi hal qiladi.**

Shu bois milliy armiyamizning
chinakam kuch-qudratini belgilab
beradigan qo'rqmas va dovyurak
harbiyalarimiz qalbida jangovar ruhni
oshirish, ularni har qanday qiyinchilik
va sinovga chidamli va matonatli
etib tarbiyalash bundan buyon ham
e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Aziz Vatan himoyachilari!

Sizlarni bugungi qutlug' bayram
bilan yana bir bor samimiyy tabriklab,
barchangizga mustahkam sog'iqliq,
oilaviy baxt, olijanob va mas'uliyatli
faoliyatizingizda ulkan zafarlar tilayman.

Azm-u shijoatlari O'zbekiston harbiyalar
- Vatanimiz posbonlariga shon-sharaflar
bo'lsin!

**Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar
Oliy Bosh Qo'mondoni**

(O'ZA)

14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni

TINCH YURTGA BAYRAMLAR YARASHAR

Poytaxtimizdagи
muhtasham "Xalqlar
do'stligi" san'at –
saroyida 14-yanvar –
Vatan himoyachilari
kuni va O'zbekiston
Respublikasi Qurolli
Kuchlari tashkil
etilganligining 32
yilligi munosabati
bilan bayram
shodiyonasi bo'lib
o'tdi.

O'zgacha ruh va yuksak taraddud
bilan boshlangan tantana avvalida
mudofaa vaziri general-leytenant
Bahodir Qurbonov davlatimiz
rahbarining Vatan himoyachilariga
yo'llagan bayram tabrigini o'qib
eshittirdi.

Shundan so'ng tadbirning
badiiy qismi boshlandi. San'atkorlar
ijrosida o'limas tuyg'ular tarannum



etildi. Qo'shiqlar raqslarga ulandi.
Ko'ngillarga bayramona kayfiyat
mehmon bo'ldi.

Ha, kuya ulug' hikmat, qo'shiqda
hayot otlig' qudrat va chek-chegarasiz
mehr-muhabbat yashirin, deydilar.
Shuning uchun ham asl navolarning
taft-u haroratidan qalbda ezgulik va
muhabbat kurtaklari rang olib gullaydi,
baravj o'sadi. Buyuk bobokalonimiz



Amir Temur musiqaga qo'shining
jangovar ruhijatini ko'taruvchi katta
kuch deb baho berib, askarlarni
nafaqat jangovar bayroq, balki musiqa
cholg'ulari bilan ta'minlaganligi
zamirida ham shunday hikmat
yashirindir.

Muhimi, san'at saroyida jaranglagan
ohanglar ko'ngillardan joy oldi. Xalq va
armiyani yanada yaqinlashtirdi.


Bir so'z bilan aytganda, Vatanga
bo'lgan muhabbat va sadoqat
tuyg'usini yanada alangalatuvchi,
yurting shon-sharafini madh etuvchi
bu taronalar Vatan himoyachilari
uchun o'ziga xos bayram sovg'asi
bo'ldi.

**Podpolkovnik
Gulnora HOJIMURODOVA**

Shu kunlarda mamlakatimizda yana bir shonli sana – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligi bayrami keng nishonlanmoqda. Davlatimiz rahbari boshchiligidagi olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida milliy armiyamizning qiyofasi va salohiyati tubdan o'zgarib, Yangi O'zbekiston qalqoniga aylanayotgani har birimizga faxr-u iftixor baq'ishlaydi. Yuksalishlarga hamohang tarzda mamlakat harbiy prokuraturasi faoliyatini ham takomillashib borayotgani e'tirofga loyiqa.

INSON QADRI – USTUVOR MEZON

HARBIY PROKURATURA FAOLIYATIGA NAZAR



Adliya polkovnigi Botir KUDRATXODJAYEV,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinnibosari –
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori

66 Eng beba boylig bu yurt tinchligi va xalq osoyishtaligidir. Har qaysi jamiyat rivoji, taraqqiyoti, istiqboli uchun, eng awalo, o'sha yerda tinchlik ta'minlanishi kerak. Ushbu haqiqatni, afsuski, bugun Yer yuzining millionlab aholisi alam va iztirob bilan dilidan o'tkazmoqda. Vatanimiz mustaqilligi va suverenitetini, uning hududiy yaxlitligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan yanada sergakkil va mardlik, muqaddas qasamyodga sodiqlik, yurtga sadoqatni taqozo etadi.



O'tgan 2023-yil harbiy prokuratura organlari tarixida alohida iz qoldirdi. Prezidentimizning 2022-yil 23-dekabrdagi tegishli farmoni asosida boshlangan **tub islohotlarning dastlabki yilidayoq** harbiy prokuratura organlari va Qurolli Kuchlar tarixida avval kuzatilmagan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

TAMOYILDAN OG'ISHMAY

Eng avvalo, Qurolli Kuchlarda Konstitutsiya va qonun ustunligini hamda qonuniylikni so'zsiz ta'minlashda "Inson qadri uchun" tamoyili ustuvor mezon etib belgilandi. Ushbu tamoyildan og'ishmasdan olib borgan faoliyatimiz mobaynida harbiy xizmatchilar va xodimlarning huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishiga ustuvor ahamiyat qaratilib, minglab fuqarolarning buzilgan huquqlari tiklandi. Yetkazilgan zararlar undirildi. Bu, albatta, ushbu fuqarolarning roziligi, ishonchiga sabab bo'ldi.

Rozilik haqida gap ketganda, oilasidan ko'ngli xotirjam insongina yurtga, jamiyatga foyda keltirib, hayotdan rozi yashashini ta'kidlashimiz zarur. Shu nuqtayi nazardan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari, ishchi-xizmatchilar va pensionerlarning Konstitutsiya hamda qonunlar bilan kafolatlangan ijtimoiy himoyasi, huquq va manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

TASHABBUSKORLIK

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tashabbusi bilan Qurolli Kuchlar xizmatchilarini bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazish, Chernobil AES halokati nogironlariga zarur tibbiy xizmatlar, bepul dori vositalari tarqatilishi ta'minlandi. Birgina Buxoro viloyatidagi shunday nogiron fuqarolarga qonunchilikda belgilangan imtiyozlar oxirgi 10 yil davomida qo'llanilmagani aniqlanib, amaliy choralar ko'ridi. Chaqiriluvchilarni saralashda tibbiy ko'riklarga jalb etilgan tibbiyot xodimlariga to'lanmay qolgan qo'shimcha haqlari, harbiy oilalardan undirilgan ortiqcha kommunal to'lovlar qaytarildi.

Oliy harbiy ta'lif muassasalarida tahsil olayotgan yetim va ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan kursantlarga qonunchilik hujjalari belgilangan **150 mln so'mga yaqin qo'shimcha to'lovlar** to'lab berildi.

OMMAVIY QABULLARDA

Adolatning katta-kichigi bo'lmaydi. Nohaqlikka uchragan inson haq-huquqlarining g'alabasi avvalo, "Inson qadri uchun" g'oyasining hayotiy ro'yobi, insonparvar tizimning haqqoni natijasi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari rahbarlari bilan hamkorlikda joylarga chiqish orqali yurtimiz bo'ylab ommaviy sayyor qabullar o'tkazilganda bunga ko'p bora guvoh bo'ldik.

Muqaddam har bir vazirlik alohida o'tkazgan qabuldan farqli o'laroq, bunda muammolar taalluqliligi bo'yicha bir vaqtning o'zida bir necha tizim mas'ullari tomonidan tinglanishi, xususiyatiga ko'ra birdan ortiq vazirlikka tegishli masalalar joyida ko'rib chiqilib,

tezkor hal etilishi va muayyan fursat talab etiladiganlari yuzasidan hamjihatlikda aniq amaliy chora-tadbirlar belgilanishi bilan ham murojaat egalariga konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish uchun qulay imkoniyatlar yaratildi.

SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

Mutaxassislar bugungi kunda inson sog'lam turmush tarziga amal qilish orqali 100-120 yoshgacha umr ko'rishi mumkin, deb hisoblashmoqda. Bunda, albatta oziq-ovqat ta'minoti, dam olish, sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish, yashash va ishslash uchun yeterli shart-sharoit bilan ta'minlanish kabi omillar muhim o'r'in tutadi. Maxsus reja asosida respublikamiz bo'ylab ko'p bosqichli kompleks tadbirlar yo'lga qo'yilib, joylarda **1 500 dan ortiq** harbiy xizmatchilarning oila a'zolari kasalliklarni erta aniqlash maqsadida chuqurlashtirilgan tibbiy tekshiruvdan o'tkazilib, kasallik belgilari aniqlanganlarning muammolarini hal etish choralar ko'rildi. Misol uchun, ularning **47 nafariga** davolanish uchun yo'llanmalar berildi, **27 nafarin** murojaati qanoatlantirildi, shu jumladan **2 nafari** ishga va **12 nafarin** nogironligi bo'lgan farzandlari ta'lif muassasalariga joylashtirildi.

HUQUQIY VA AMALIY YORDAM

Harbiy xizmatchilarga huquqiy va amaliy yordam ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yildi. Chunonchi, harbiy xizmatchilarga soliq qonunchiligida belgilangan imtiyozlarni qo'llash masalasida zarur hujjalarni to'plash, soliq idoralari yoki boshqa pullik xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarda ortiqcha vaqt sarflash kabi holatlarga barham berildi. Natijada ipoteka krediti yoki oila a'zolarining kontrakt to'lovlarini amalga oshirayotgan harbiy xizmatchilarga ortiqcha soliq ushlanmalari qaytarilishi ta'minlanmoqda.

Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarini va xodimlari oila a'zolarining bandligini ta'minlash maqsadida o'tkazilgan mehnat

yarmarkalarida ularning aksariyati o'zlariga maqbul bo'lgan ishlarga joylashtirildi.

Homiylid asosida kam ta'minlangan va yordamga muhtoj oilalarning xonadonlarida ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, yonilg'i-energetika sohasida qonunlarga rivoja etilishi muntazam o'rganilib, qo'shinlardagi debitor qarzdorlikni bartaraf etish choralarini nazoratga olindi.

RAQAMLASHTIRISH – ZAMON TALABI

Bugungi kunda faoliyatimizga raqamli texnologiyalar va axborot-ma'lumot tizimlari jadal tatbiq etilmoqda. Bu esa tizim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etayotir. Nazorat sohasini raqamlashtirish maqsadida tegishli vazirlik va idoralalararo "Qurolli Kuchlarda qonunchilik ijrosi ustidan nazorat" yagona elektron platformasi yaratildi. Buni harbiy xizmatchilarga uyjoy ajratilishi misolida oladigan bo'lsak, shaffoflikni ta'minlash, korrupsiya holatlarning oldini olish, hujjatlarning hay'atlar tomonidan qisqa vaqtida ko'rib chiqilishiga erishish, navbatlarni onlayn kuzatib borish imkonini beradi.

Byudjet mablag'lari sarflanishi va davlat mulkidan foydalanish qonuniyligi ustidan nazorat mexanizmlari takomillashtirilib, Qurolli Kuchlarda "Shaffof qurilish", "E-xarid" va "E-auksion" elektron platformalari ishga tushirildi.

ODAMLAR ROZILIGI – OLIY SAODAT

Uzoq yillar davomida hal etilmay kelingan muammolar o'z yechimini topmoqda. Harbiy prokuratura tomonidan sudga da'vo arizalar kiritilishi natijasida Nukus shahrida 112 nafar sobiq harbiy xizmatchi va Qurolli Kuchlar xizmatchilariga ko'p yillardan buyon o'zlarini istiqomat qilib kelayotgan 23 ta xizmat xonadoni Mudofaa vazirligi balansidan chiqarilib, xususiy lashtirilishida amaliy yordam ko'rsatildi.

Harbiy qismalar hududida bo'sh turgan binolar ta'mirlangan holda zamonaviy axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan xorijiy tillar, matematika, tarix, kompyuter sinflari va elektron kutubxonaga ega o'quv markazlari tashkil etilib, hozirgi vaqtida ularda harbiy xizmatchilarning turmush o'rtoqlari va farzandlari tahsil olib kelmoqda.

XALQARO HAMKORLIK

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi faoliyatini takomillashtirishda, hech shubhasiz, rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikni samarali yo'lda qo'yishning ahamiyati beqiyos. Shu bois sohaga ilg'or xorijiy tajribani tatbiq etishga, xalqaro tashkilotlar va yetakchi davlatlar mas'ul organlari bilan hamkorlikni keng yo'lda qo'yishga e'tibor qaratilib, o'tgan davrda Koreya Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasiga safarlar yuushtirildi.

Birgina Koreya Respublikasiga tashrif natijalari bo'yicha berilgan takliflarga muvofiq, mamlakatda ilk bor harbiy xizmatchilar va boshqa fuqarolar uchun Mudofaa vazirligida 13-57 qisqa raqamli "Call center" faoliyati yo'lda qo'yildi. So'nggi 2 oy ichida 300 dan ortiq murojaat yuzasidan zarur psixologik maslahatlar berildi.

ARMIYA VA YOSHLAR

Hozir yigitlarimiz uchun harbiy sohada xizmat qilish nafaqat faxrli burch, balki yuksak shon-sharafga aylandi. Bunday natijaga erishishda esa harbiy prokuraturaning ham hissasi salmoqli.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalash borasidagi yangi yo'nalish va vazifalar doirasida hududiy harbiy prokuraturalarga biriktirilgan olis hududlarda joylashgan jami 515 ta maktabda, shuningdek harbiy ta'lim muassasalarida mingdan ortiq "Prokurorlik soati" tadbirdari o'tkazildi. "Ingliz tili bilimdoni", "Yosh matematik", "Yosh rassom" kabi tanlovlardan tashkil etilib, g'oliblar munosib taqdirlandi. "Armiya va xalq birdamligi" shiori ostida o'tgan bu kabi ma'naviy-huquqiy tadbirdarga 37 mingdan ziyod o'quvchi-yosh qamrab olindi. O'g'il-qizlarning faolligi, qiziquvchanligidan ham bilish mumkinki, mazkur tadbirdalar ular uchun juda kerak.

HAMMAGA YETIB BORSIN

Huquqiy madaniyatni yuksaltirish, harbiy sohaga doir huquqiy axborotni yetkazish va bu boroda fuqarolarga, shu jumladan Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari, xodimlari, ularning oila a'zolari, ishchi-xizmatchilar va pensionerlarga qulaylik yaratish maqsadida Harbiy prokuraturaning Telegram kanalida "Huquqiy maslahat" va "Huquqiy axborot" xeshteglari, veb-saytda esa odamlarni eng ko'p qiziqtiradigan savollar bo'yicha "Onlayn maslahat" sahifasi

yuritilib, ularda 200 dan ortiq post joylandi.

Qayd etish joiz, yuqorida singari internet tarmoqlari, shuningdek ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng foydalangan holda hamda og'zaki shaklda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari huquqiy savodxonligini yuksaltirishga qaratilgan 12 mingdan ortiq huquqiy targ'ibot-profilaktik, shu bilan birga, faoliyatga oshkorlik berishga doir tadbirlar amalga oshirildi.

KITOBXONLIK VA MUTOLAA

Kitob maslahatchi, sadoqatli hamroh, eng yaqin do'st va bebaho boylikdir.

Kitobxonlikni keng targ'ib qilish va mutolaa madaniyatini oshirish maqsadida Harbiy prokuratura veb-saytida "Elektron kutubxona" sahifasi mavjud. "Audiomutolaa" xeshtegi ostida Telegram kanalida o'zbek va jahon adabiyoti namoyandalarining durdona asarlari audio shaklda obunachilar e'tiboriga havola etib borilmoqda. O'z navbatida, "Kitob – yuksalish asosi" nomli videorolik tayyorlanib, ijtimoiy tarmoqlar orqali namoyish etildi.

YANGILIKLAR KO'P

2023-yil ko'plab muhim yangiliklarga boy bo'ldi, jumladan shu yilning 1-martidan boshlab, fuqarolarni harbiy xizmatga chaqirish, harbiy xizmatchilarning moddiy ta'minoti va ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq qonunlar ijrosi yuzasidan o'tkazilishi rejalashtirilgan tekshirishlar haqida ular boshlanishidan kamida bir oy avval veb-saytda e'lon qilinishi yo'lda qo'yildi.

Hisobotlarni maxsus dasturlar orqali elektron tarzda yuborish va qabul qilish amaliyoti yo'lda qo'yildi, natijada qog'oz va pochta xarajatlari iqtisod qilinmoqda.

OCHIQLIK TA'MINLANMOQDA

Faoliyatimizda oshkorlik ta'minlanishi ham tubdan o'zgardi. Harbiy prokuraturaning rasmiy veb-sayti, Facebook va YouTube messenjerlarida rasmiy sahifalari yaratildi, Telegram ijtimoiy tarmog'idagi sahifasi takomillashtirildi.

Kadrlar bilan ishslash yangi tendensiya asosida yo'lda qo'yildi. Xizmatga qabul qilishda harbiy prokuratura tarixida ilk bor ochiq tanlov joriy etildi. Vakant lavozimlari, nomzodlarga talablar, harbiy-kasbiy tanlovlari va ularni o'tkazish tartibi haqidagi ma'lumotlar veb-saytda muntazam joylab borilmoqda va eng yuqori natijaga erishgan nomzodlar xizmatga qabul qilinmoqda.

Xodimlarning faoliyat samaradorligini baholash (KPI) tizimi ishlab chiqilib, amaliyatga joriy qilindi. Malaka va odob-axloq kengashlari tashkil etildi. Bosh prokuratura huzuridagi Jamoatchilik

kengashi harbiy prokuratura organlarida jamoatchilik nazoratini yuritishi belgilandi. Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan hamkorlikda alohida o'quv dasturi asosida xodimlarni o'qitish yo'lga qo'yildi.

Veb-saytimizda "Antikorrupsiya" sahifasi ishga tushirilib, Harbiy prokuratura organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlarni doimiy yoritish, qolaversa, fuqarolarga xodimlarning xatti-harakatlari yuzasidan ma'lumot va takliflar berish imkonini yaratildi.

"Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish" bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi. Tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov o'tkazish bo'yicha xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirib borish maqsadida tergov o'tkazishning turlari, shakllari, mexanizmlari hamda bunda alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim holatlar aks ettirilgan elektron qo'llanma yaratish ustida ish olib borilmoqda.

Tergov qilingan jinoyat ishlari bo'yicha nazorat ishlarni ilk bor elektron shaklda yuritish amaliyoti yo'lda qo'yildi. Tergovi dolzarb bo'lgan jinoyat ishlari bo'yicha mavjud muammo va savollarga yechim topish maqsadida mahkamada tajribali va malakali xodimlardan iborat maslahat kengashi faoliyat yuritmoqda.

Albatta, amalga oshirilgan ishlarni xususida uzoq so'z yuritish mumkin. Eng muhimi, barcha sa'y-harakatlarni harbiy prokuratura organlarida hamda Qurolli Kuchlarda "Inson qadri uchun", "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyillar to'la qaror topishiga erishish yo'lida dadil qadamlar tashlanmoqda. Zero yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilanganidek, inson huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari va mansabdar shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi.

Shu o'rinda ta'kidlashni istardimki, ofitser, serjant, oddiy askar, farrosh, haydovchi va mutaxassis lavozimidagi har bir harbiy prokuratura xodimi tizimidagi islohotlar mohiyatini anglagan holda ularning ijrosi yo'lida mehnat qilmoqda. Joriy "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da ham faoliyat doirasidagi chora-tadbirlar jadal davom ettiriladi.

Fikrim yakunida fursatdan foydalanib, 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan Qurolli Kuchlarimiz tizimidagi barcha harbiy xizmatchilar, xodimlar va pensionerlarni hamda O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlaridagi barcha hamkasblarimiz va faxriyalarimizni chin dildan tabriklayman.

Yurtimiz tinchligi va xalqimiz farovonligi yo'lidi mashaqqatli, mas'uliyatli va sharafli xizmatlaringizda sizlarga mustahkam sog'liq, omad va bardavom zafarlar tilab qolaman.

YUTUQLARGA UNDOVCHI ILHOMBAXSH SHODIYONA

Vatan himoyachilari kuni bayrami jasorat va shijoatni ulug'lovchi, mard o'g'lolnarni sharaflovchi tantanadir. Zotan, mardlik, jasorat va fidoyilikni umirining mazmuniga aylantirgan harbiy xizmatchilar har qancha e'tirofga munosibdirlar.



Shuningdek, mudofaa vaziri o'z ma'rurasida Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida erishilgan yutuqlar bilan birga bu yil uchun juda katta topshiriq va ustuvor vazifalar belgilab berilganini, ya'ni hozirgi murakkab va tahlikali davrda armiyaning harbiy-jangovar va yuksak ma'nnaviy salohiyati uning buyuk tayanchiga aylanishini ta'kidlab o'tdi. Joriy yilda Mudofaa vazirligi tizimida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar, xususan davlatimiz rahbari qo'ygan topshiriqlar ijrosini ta'minlash, qo'shnlarning jangovar shayligi va salohiyatini oshirish borasidagi muhim vazifalarga alohida to'xtaldi.



Shu munosabat bilan Mudofaa vazirligi markaziy apparatida tantanali tadbir o'tkazildi. Unda mudofaa vaziri general-leytenant Bahodir Qurbonov, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinosi – Respublika Harbiy prokurori adliya polkovnigi Botir Kudratxodjayev, mudofaa vaziri o'rinosarlari, harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar faxriylari ishtirot etdi.

Tadbirda so'zga chiqqan mudofaa vaziri barchani qutlug' sana bilan samimi tabriklar ekan, hayotini ona yurt himoyasidek ulug' va sharafli ishga bag'ishlagan harbiy xizmatchilarga o'zining yuksak hurmat va minnatdorligini bildirdi. Ularning mardonavor xizmati tufayli mamlakatimiz mudofaa qudrati mustahkam, yurtimiz tinch va xalqimiz farovon ekanligini e'tirof etdi.

Shundan so'ng mudofaa vazirining buyrug'iga asosan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bir guruh harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar xizmatchilari va faxriylar hamda 2023-yilda "Men g'olib!" shiori ostida o'tkazilgan "O'z kasbining ustasi" ko'rik-tanloving "Eng ilg'or brigada

komandiri", "Eng ilg'or batalyon komandiri", "Eng ilg'or vzvod komandiri", "Eng ilg'or serjant" nominatsiyalari g'oliblari va "Eng ilg'or batalyon va divizion" ko'rik-tanlovi muzaffarlar taqdirlandi.

Tantanada Respublika Harbiy prokurori adliya polkovnigi Botir Kudratxodjayev O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining bayram tabrigini o'qib eshtiddi va bir guruh harbiy xizmatchilarni taqdirladi.

**Podpolkovnik
Gulnora HOJIMURODOVA**

O'tkir RAHMAT

VATANNI ASRAMOQ – SEVMOQDAY AZIZ

Har lahma turlanib boradi dunyo,
Shu fursat ortida qancha sir pinhon.
Qayda quyosh kulta, qay joy zim-zio.
Kemaday chayqalib turibdi jahon.

Barimiz yo'lovchi muqaddas yo'lda,
Nurli manzillarga qadalgan nigoh.
Maqsadsiz odimlar – bari behuda,
Adashib qolamiz bo'lmasak ogoh...

Barchamiz bir bo'lsak – bitta ko'z bo'lsak,
Vahshatli to'lqindan sog' o'tajakmiz.
Ko'nglimiz mushtarak, bitta so'z bo'lsak,
Sirli eshiklarni lang ochajakmiz.

Ne zotlar shu yurt deb o'rtangan, yongan,
Qanchasining bag'ri pora-yu kuyuk.
Vatanini sevgan har odamki sha'n,
Yurtin ardoqlagan har zotki – buyuk.

Buyuklar yurtidir demak bu o'lna,
Amir Temur aytsin, Shiroq yo Kubro.
Yuziga, so'ziga tushmas ko'lanka,
Chunki osmonini bezar Oy, Zuhro.


Senga panoh bo'lsin porloq ziyorlar,
Voz kech foni yunu savdolaridan.
Momolardan olgin ezgu duolar,
Ruhingga saboq ol bobolaringdan.

O'g'on! Jasur ersang, ayama jonni,
Bu Vatan abadiy, jon esa o'tar.
Ko'tar yelkang uzra O'zbekistonni,
Dovrug'ini ko'tar, shonini ko'tar.

Unutma!
Yovlar mo'l, yo'l etar davom,
Posbon bo'l, ko'nglingda muqaddas bir his.
Mudom jaranglasin qalbda bir kalom:
Vatanni asramoq – sevmoqday aziz!

Vatanni asramoq – sevmoqday aziz!

Vatan ostonasi



CHEGARA QO'SHINLARI

Yangi O'zbekistonning mustahkam qalqoni!

Bunyodkor xalqimiz bilan yakdillikda yangi davrga qadam qo'yilib, Yangi O'zbekiston barpo etilayotgan bugungi kunda Qurolli Kuchlarimiz ham xalqimizning chin ma'nodagi mustahkam qalqoni va ishonchli himoyachisiga aylandi. Xususan, sohaga qaratilayotgan diqqat-e'tibor natijasida Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarining moddiy-texnik bazasi ham yanada muftahkamlanib, strategik fikrlaydigan, intellektual salohiyatlari ofitser kadrlar va serjantlar tarkibini tayyorlash jarayoni yangicha o'quv-texnik va ma'naviy-axloqiy asosda tashkil etilmoqda.



Ta'kidlash kerakki, 2023-yilning 30-aprel sanasida yurtimiz hayotida bo'lib o'tgan muhim siyosiy jarayon, ya'ni umumxalq referendumi natijasida qabul qilingan Yangi O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi asosida chegara sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar ham qayta ko'rib chiqildi.

Mazkur jarayonda dunyo davlatlarining eng ilg'or tajribalari o'r ganilish, 1999-yil 20-avgustda qabul qilingan eski tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi to'g'risida"gi qonunning mavjud huquqiy bo'shlqlari to'ldirilib, 2023-yil 13-sentabrda yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Shu bilan birga, "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonunning qabul qilinishi va shu asosda Chegara qo'shinlariga bir qator vakolatlarning berilishi ham endilikda davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilish davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muayyan qiyinchiliklar va muammolarning oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ishohotlar xususida so'z yuritilar ekan, davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat natijasida chegaradosh mamlakatlar bilan yaqin qo'shnichilik munosabatlari yangi bosqichga chiqib, tobora mustahkamlanib borayotganini, bu esa tili, urf-odatlari, an'ana va qadriyatlari bir-biriga yaqin bo'lgan, ko'p yillardan buyon quda-andalik rishtalari bilan o'zaro bog'langan qardosh xalqlarning minnatdorlik kayfiyatlarida aks etayotganini ham alohida e'tirof etish o'rinni.

Xususan, 2023-yilning 1-sentabridan O'zbekiston fuqarolari Qirg'izistonga, xuddi shunday Qirg'iziston fuqarolari O'zbekistonga ID karta bilan o'tish imkoniga ega bo'dilar. Ushbu muhim qarorning qabul qilinishi ikki mamlakat davlat rahbarlarining siyosiy irodasini ifoda etish bilan birga ikki qardosh xalq o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlashda ham muhim o'rinni tutmoqda.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro samimiylari va do'stona munosabatlarning yo'lga qo'yilishi hamda oqilona chegara siyosati olib borilishi natijasida Hukumatlararo

komissiya vakillarining sa'y-harakatlari bilan davlat chegarasining delimitatsiyasi va demarkatsiya ishlari jalal sur'atlarda davom ettirilmogda, bu esa, o'z navbatida, davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilish samaradorligini yanada oshirishga o'z ijobiya ta'sirini ko'rsatmoqda.

Xalqaro hamkorlik haqidagi fikrlarimizni davom ettirar ekanmiz, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari MDH, ShHT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yib, o'tkazilayotgan ikki va ko'p tomonlama uchrasuvlari, o'quv mashqlari, kadrlarni tayyorlash va ilg'or tajribalarni o'rganish borasidagi xalqaro konferensiya hamda seminarlar doirasida o'zaro tajriba almashib kelmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston MDH davlatlari Chegara qo'shinlari qo'mondonlari kengashining a'zosini sanalib, uning yig'ilishlari davomida a'zo mamlakatlarning davlat mustaqilligi va chegaralari daxlisizligini ta'minlash borasida ham qator hamkorlik shartnomalari imzolanmoqda. Mazkur kengashning navbatdagi yig'ilishi joriy yilda aynan O'zbekiston mezbonligida o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Mamlakatimiz tinchligi, xalq farovonligini ta'minlayotgan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoyalash borasida Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni boshchiligidagi xizmat rahbariyati, Chegara qo'shinlari qo'mondonligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda joylardagi harbiy-ma'muriy sektorlar hamkorligida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar natijasida zamonaliviy turdag'i chegarani qo'riqlash vzvodlari namunaviy loyiha asosida qurilib, barcha shart-sharoit va quayliklarga ega bo'lgan xizmat xonadonlari foydalanishga topshirilmogda.

Tuman markazlaridan olisda joylashgan vzvodlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining filiallari tashkil etilib, harbiy xizmatchilarning turmush o'rtoqlari ishga qabul qilindi va hozirgi kunda sarhadlarimiz posbonlari hamda mahalliy aholining farzandlari tarbiyalanib kelmoqda. Olis

hududlarda joylashgan harbiy shaharchalarda istiqomat qiladigan harbiy xizmatchilarning farzandlari maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnashlari uchun maktab avtobuslari xarid qilindi. Bo'linmalarda tashkil etilgan kichik tikuv sexlarida harbiy oila bekalarining bandligi ta'minlanmoqda.

DXX Chegara qo'shinlari bo'linmalariga biriktirilgan chegaraoldi hududlaridagi 399 ta umumta'lim maktabida faxriylar hamda harbiy xizmatchilar ishtirokida 7 300 dan ortiq ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Shuningdek, mazkur maktablarda tashkil etilgan "Yosh chegarachilar" klublari faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ishlab chiqilib, hayotga tabtiq etildi.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, inson qadri ulug'lanayotgan, barcha islohotlar uning erkin, farovon va baxtli hayot kechirishi uchun xizmat qilayotgan Yangi O'zbekistonda harbiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida yurt himoyachilari va ularning oila a'zolari uchun munosib xizmat hamda turmush sharoitlari yaratilar ekan, sarhadlarimiz posbonlari ham ushbu g'amxo'rlik va quayliklardan unumli foydalangan holda, davlatimiz chegaralarini yanada mas'uliyat bilan mustahkam qo'riqlaydilar.

Polkovnik Sobirjon ISAKOV
DXX Chegara qo'shinlari



VATANNI UNGA BO'LGAN MUHABBAT OBOD ETADI, ASRAYDI

Minhojiddin HOJIMATOV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari

Dunyoda sharaflı vazifalar juda ko'p, ammo ular ichida kindik qoning tomgan Vataningni himoya qılısh sharaflılar ichra sharaflisidir. Negaki, Vatan bu insonga ato etilgan eng qutlug' ne'mat, halol nasibamiz, ajdodlarimiz uyg'oq ruhi kezib yurgan tabarruk go'sha, ularning nafasi ufurib turgan muqaddas tuproqdir!

Vatan unga bo'lgan muhabbatdan yuksaladi, ardoqlanadi.

Vatan asl vatanparvarlar ko'ksida jon qadar e'zoz va himoya topadi.

Jaloliddin Manguberdi shijoati, Amir Temur jasorati...

Bular ko'ksida Vatan degan quyoshni ko'tarib yashagan insonlardir. Shu bois ular qalblarimiz to'rida. Vatan tarixini nima bezab turadi, deb so'rasalar, hech ikkilanmay, shijoat-u jasorat, ma'rifat-u adolat sadoqat-u himoyat, degim keladi.

Inson ma'naviy olamining kuchi, qudrati uning Vatan oldidagi burchi, mas'uliyatini qanday anglab tushunishda ham namoyon bo'ladi.

Bugun zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlangan, milliy qadriyatlarimiz va ajdodlarimizning jangovar an'analariga tayangan Qurolli Kuchlarimiz, yuksak jismoniy tayyorgarlik, intellektual salohiyatga, ruhiy-ma'naviy fazilatlarga ega bo'lgan asl vatanparvar askar yigitlarimizni ko'rganda beixtiyor qalbda iftixon tuyamiz. Negaki, bugungi kunda yigitlarimiz uchun harbiy sohada xizmat qilish Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, nafaqat faxrli burch, balki shon-sharaf ishiga aylanmoqda.

O'tgan yillarda davomida Vatan himoyachilar kunini nishonlash, bayram qilish diyorimizda qutlug'

an'anaga aylandi. Mustabid tuzumdan meros bo'lib qolgan insonni kamsituvchi "tartib-qoidalalar" o'rnida bugun yuksak ma'naviy asosdagi, chinakam Vatan himoyachisiga e'zoz namunasi bo'lgan egzu an'analar shakllandi. Bugun harbiy mahoratlari askarlarimiz, oliy harbiy bilim yurtlari, jangovar shay turgan harbiy qismlarimiz, har tomonlama yetuk alpomish yigitlarimiz shijoatini ko'rganda bir zum o'tgan yillar ko'z oldimizdan o'tadi...

Bugungi kunda xalqimiz tinchligi va xavfsizligi, sarhadlarimiz daxlsizligini qalqon yanglig' himoya qilib kelayotgan Qurolli Kuchlarimizga boqib, iftixorlanamiz. Albatta, bu murakkab va og'ir jarayonlar oson kechmaganini yurakdan his qilamiz.

Har yili yurtimizda 14-yanvar sanasi katta bayram qilinadi. Hammaning yuz-ko'zida quvonch, tabassum... Bayram bilan bir-birlarini chin dildan tabriklayotgan nafaqat askar va ofitslerlar, balki talabalar, ziyolilar, olimlar, faxriylarni ko'rganda yuraging yorishib ketadi. Axir bu bayram ham biz uchun, butun xalqimiz uchun mustaqillik bayramidek aziz va muqaddasdir...

Aslida, bu Vatan fidoyilar bayrami, bu Vatanni asraguvchilar bayrami, bu Vatanni yuksaltirgvuvchilar bayrami, bir so'z bilan aytganda, bu Vatanni sevguvchilar bayramidir. Demak, bu bayram barchamizni! Barchamizga Vatan himoyachisi degan mo'tabar nomga sazovor bo'lib yurish nasib etsin. Yurtimizning tinchligi va osoyishtaligini himoya qilish hamisha, har lahzada har birimizning eng oliy va sharafli burchimiz bo'lib qolsin!



ASKAR QO'SHIG'I

Farovon ko'changdan yurib to'ymayman, Pokiza tuyg'ular terib tinmayman, Erkning og'ushida erib tinmayman, Munavvar tonglaring go'zaldir, Vatan, Betakror onlaring go'zaldir, Vatan!

Elimning umidi payvand jonimga, Tuganmas buloqsan g'urur-sha'nimga, Mehrimni berayin jonajonimga, Munavvar tonglaring go'zaldir, Vatan, Yuksalgan shonlaring go'zaldir, Vatan!

Millat daraxtiga muqaddas makon, Avlodlar ulg'ayar aziz oshiyon, Dilim tulporiga suvoriy tug'yon. Munavvar tonglaring go'zaldir, Vatan, Cheksiz imkonlaring go'zaldir, Vatan!

Men borman – elimning egilmas boshi, Minglarga kirsa ham qarimas yoshi, Istiqlol ko'kida balqqan quyoshi, Munavvar tonglaring go'zaldir, Vatan, Betakror onlaring go'zaldir, Vatan! Yuksalgan shonlaring go'zaldir, Vatan, Cheksiz imkonlaring go'zaldir, Vatan!

Amirqul KARIMOV

Yangi nashr

YO'LING QUTLUG' VA YORUG' BO'LSIN!



O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi muassisligida "Xalq va armiya – bir tan-u bir jon" deb nomlangan ilmiy-ommabop jurnalning birinchi soni chop etildi.

Mazkur jurnal sahifalaridan o'rin olgan Vatan himoyasida mardona turgan o'g'lolnarga ruhiy quvvat baxsh etadigan, kuchiga kuch qo'shadigan maqolalar milliy armiyani fuqarolar bilan bog'lab turuvchi "ko'prik"ning ma'naviy asosini bajarishi ko'zda tutilgan bo'lib, ijodiy jamaa zimmasiga yuklatilgan vazifalar hamda uning ijrosi O'zbekiston Qurolli Kuchlarining nafaqat bugungi, shu bilan birga bir necha o'n yillik istiqboldagi qudratini belgilashi, mustaqillik va el tinchligi mustahkamligining kafolatini aks ettirishi bilan ahamiyatlari.

Bosma ommaviy axborot vositalari – gazeta va jurnallarga e'tibor susaygan bir paytda Mudofaa vazirligi rahbariyatining shunday ezgu va qutlug' ishga qo'lli urgani tahsinga loyiq. Chunki bir paytlar Vatan ozodligi, el-ulus ma'rifati uchun nafaqat mol-u mulkini, shu bilan birga shirin jonini fido etgan taraqqiy parvar jadidlar ham gazeta va jurnallarni maqsadga erishuvning eng muhim qudratli vositasi deb bilgan edilar. Mamlakatimizda ilk bor chop etilgan nashrlar ularning o'z mablag'lari hisobidan chop qilingan edi.

Turli g'oya va manfaatlar kurashi kuchayib borayotgan bugungi kunda yolg'oni rostdan, rostni yolg'onidan ajratish tobora og'irlashib bormoqda. Ana

shunday sharoitda ommaviy axborot vositalarining oldingi saflarga chiqishi, turli soxta ma'lumotlarga qarshi o'quvchi, tinglovchi va tomoshabinlarning mustaqil dunyoqarashi va fikrini shakllantirishi lozim. Shu ma'noda "Xalq va armiya – bir tan-u bir jon" jurnali mamlakatimiz axborot maydonida o'z minbarini paydo qilib, barcha ijtimoiy qatlamlarning harbiy sohaga oid fikr va qarashlarini ifoda etish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi, albatta.

O'zbekiston Qurolli Kuchlari ma'naviy hayotida, harbiy ilm-fan olamida dunyoga kelgan mazkur jurnal, o'ylaymizki, Vatan himoyachilarining kayfiyatini ifoda etib, yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg'ularini singdirish, eliminzing o'z armiyasi va himoyachilariga bo'lgan hurmat-e'tiborini yuksaltirishning muhim vositalaridan biriga aylanadi. Harbiylar va yoshlar orasiga tez kirib borib, ularning o'y-fikrlari, talab va istaklari, muammo-yu tashvishlarini bir ko'zgu kabi aks ettiradi.

Yo'ling qutlug' va yorug' bo'lsin, ey ma'naviy yo'ldosh!

"Vatanparvar" gazetasi tahririyati

VATAN TUYG'USI

Vatan – mening uchun eng muqaddas so'z, Udir uzoq ketsam, cho'mgan sog'inchim. Vatan bu – oilam, uyda to'rt juft ko'z, Ishdan qaytishimni kutgan ovunchim.

U – bolamni bog'cha, maktabga tashlab, Sahardan oshiqqan sevgan ishimdir. Vatan – unda umrim bahori boshlab, Qishim zumda tugar lahza tushimdir.

Vatan bu – xalqimning quvonchi, dardi, Inson muammosin yechish degani. Vatan – o'z yurtimning har zarra gardi, Kerak payt jondan ham kechish degani.

Vatan – jahonga bong urgan o'z tilim, Bugun qadri ulug' har bir insondir. Vatan – bir tan-u jon ko'p millat elim, Bu bir xalq, yagona O'zbekistondir!

Botir SOBIROV,
harbiy prokuratura xodimi

Ijtimoiy himoya

YURT QO'RG'ONIN MARDLAR QO'RİYDI

Har yili yurtimizda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligi hamda Vatan himoyachilari kuni o'ziga xos tantana, keng miqyosdagi bayram sifatida nishonlanadi. Navbatdagi harbiy unvon olish, davlat mukofoti bilan taqdirlanish, eng muhimi, yangi xonadonlarga ko'chib o'tish sharaflı kasb egalari va ularning yaqinlari uchun bir umrga yoddan chiqmaydigan vogelik bo'lib qoladi.



Bu yil ham an'ana davom ettirilib, yurtimizning har bir go'shasiga bayram shodiyonalari kirib kelmoqda. Minglab yurtdoshlarimiz ana shunday shodiyonalarning ishtirokchilariga aylandi. Namangan viloyatining Pop tumani Oqtepa aholi yashash punktida 200 ga yaqin xonadondan iborat harbiy shaharcha foydalanishga topshirilgani buning yaqqol misolidir. "Qamchiq" dovonining tarovatiga yanada joziba qo'shgan, shundoqqina katta yo'l bo'yida qad rostlagan bu harbiy shaharcha endilikda o'tgan-ketganlarning havasini keltiradican, kelajakda mahobatli shahar bo'lishga

arzigulik maskanga – yurtning yana bir qo'rg'oniga aylandi.

Xonadon egalariga yangi uylar kalitlarini tantanali topshirish marosimida mudofaa vazirining o'rinnbosari general-major Hamdam Qarshiyev, Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi vakillari, Pop tumani hokimligi mas'ullari, harbiy xizmatchilarning oila a'zolarini hamda jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Mudofaa vaziri o'rinnbosari kelgusida bu yerda bolalar bog'chasi, maktab, oilaviy poliklinika, harbiy xizmatchilarning oila a'zolarini ish o'rnlari bilan ta'minlovchi infratuzilma barpo etilishga ishonch bildirdi.

Bayramona o'tgan tadbirga respublikamizning barcha viloyatlaridan kelgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari, yaqin

qarindoshlari xonadon egalarining quvonchiga sherik bo'ldilar. Shaharchadagi o'yin maydonchalari bolajonlarning shodon qiyqiriqlariga to'lib-toshdi. Davlatimiz tomonidan yaratib berilgan bu kabi sharoitlarni bolajonlar jazzi qalqlari bilan his etib turganligi ularning ko'zlarida aks etdi.

Harbiy shaharchada to'y va bayram tantanalarini nishonlash uchun ham imkoniyatlar mavjudligi diqqatga sazovor. Tadbir ishtirokchilari bunga haqiqiy ma'noda guvoh bo'ldi. Chunki mehmonlar va xonadon egalariga bayramona dasturxon yozilib, doshqozonlarda osh tayyorlandi.

Tadbir davomida xonadon egalariga yangi uylar kalitlari tantanali tarzda topshirildi. Mehmonlar harbiy xizmatchilar xonadonlarida mehmon bo'ldi va oila boshliqlarini unutilmas voqeа munosabati bilan tabrikladilar.

Yangi xonadonlar harbiy xizmatchilar uchun 14-yanvar – Vatan himoyachilari va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligi bayramiga munosib sovg'a bo'ldi.

– Bir paytlar Sardorjonim olyi harbiy ta'lim muassasasiga o'qishga kirganida ayrimlarning yolg'iz o'g'lingizni harbiylikka o'qitasizmi, deya kinoyali savollar bergani ham fikrimni o'zgartirmagandi. Shundan keyin o'zim ishlagan Mingbuloq tumanidagi kasb-hunar kollejida yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalanishiga yanada mas'uliyat bilan yondashganman, – deydi yangi xonadon sohibi mayor Sardor Masharipovning onasi Muhabbat Xushnazarova. – O'nlab, yuzlab Vatanga, burchiga sadoqatlari, turli kasbni egallagan shogirdlarga ustozlik qildim. Mana, bugungi kunga kelib Sardorjon ularning biri sifatida mayor unvonidagi ofitserlik darajasiga yetdi. Oиласини, yurtini, tinchligimizni qo'riqlashda xizmat qilayotgan er yigit. Farzandining shunday kamolini ko'rish qaysi bir ota-onaning orzusi emas. Uning yangi uyga ko'chib o'tish quvonchiga sherik bo'lish uchun opasi, jiyani bilan mehmonga keldik.

– Bu kun bir umrga yodimdan chiqmaydigan bo'ldi-da o'ziyam. Chunki mudofaa vaziri o'rinnbosari boshchiligidagi mehmonlarning yangi xonadonimizga tashrifi, 70 yoshdan oshgan bobom va buvumning Xorazmdan bugungi tantanaga kelishi, shinam uyg'a ko'chib o'tish... bularni unutib bo'lar ekanmi? Turmush o'rtog'im va uch nafer farzandimning, o'zimning cheksiz quvonchimga imkoniyat yaratib bergen barcha-barchaga cheksiz minnatdorlik bildiraman, – deydi kichik serjant Jo'rabet Satimboyev.

– Surxondaryo viloyatining Denov tumanidan keldik. Abbasjon katta akasi singari harbiylik kasbini tanlash qarorini ota-onasi sifatida g'urur bilan qabul qilganmiz. Chunki yurt qo'rg'onini haqiqiy mardlar qo'riqlaydi. Bugungi tadbilda general-major Hamdam Qarshiyev ta'kidlaganidek, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasiga qanchalik e'tibor qaratayotganini amalda ko'rib turibmiz, – deydi kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi oddiy askar Abbas Umarovning otasi Tohirjon Umarov. – Bunday e'tiborni respublikamizning boshqa viloyatlari misolida ham ko'rish mumkin. Bugun Abbasjonga ikki xonali uy topshirildi. Onasi Azizaxon bilan shunday quvonchli kunda farzandimiz va kelnimiz Manzuraxonning yonida ekanligimizdan mammunmiz. Nasib etsa, yangi xonadonda nevaralarning to'ylarini o'tkazamiz hali.

**Asror RO'ZIBOYEV,
"Vatanparvar"**



Munira KAXAROVA,
O'zbekiston xalqaro islom
akademiyasi yoshlar bilan ishlash,
ma'naviyat va ma'rifat
bo'limi boshlig'i

VATANNI SEVISHMO ISTASANG

Vatanni sevish, uning har bir qarichini ko'z qorachig'idek asrash, toki umri yakuniga qadar butun vujudi bilan qo'riqlash, yovuz kimsalardan himoya qilish yo'lida kerak bo'lsa, jonini berishdir. Shuning uchun bu yer ona Vatan deb ataladi. Uning nomi shoirning she'rin, yozuvchining asarini, san'atkorning san'atini bezaydi. Chin yurakdan aytilgan madhlar ijodkorni yuksaltiradi. U "ona zaminim", degan har bir insonning qalbida "himoya qilaman", deb tug'yon uradi. Mana shu mas'uliyatni his etish barchamizning burchimiz ekanini unutmasligimiz lozim.

Vatanni sevish va uni himoya qilish nimalarda namoyon bo'ladi, deganda, quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

birinchidan, inson dunyoga kelib, ilk bor ko'zlarini onasini ko'radi. Hatto onaning taftini va sevgisini uning vujudida murg'akkinaligida his etadi. Tirik jon ekanmiz, Vatanni onamizni sevgandek sevaveramiz. Shuning uchun inson Vatanni onaga qiyoslaydi. Onasining bag'rida ulg'ayib, hayotning shirin va achchiq haqiqatlarini anglaydi. U onasining ko'zlarini bilan ko'radi, so'zlarini orqali Vatanning qanchalik muqaddasligini



tushunadi va yaxshi ko'radi. Demak, inson Vatanni onadek qadrashi, sevishi, himoya qilishdek mas'uliyat zimmasida ekanini anglashi zarur.

Ikkinchidan, inson ulg'ayar ekan, hayot ilmi bilan birga farovon turmush kechirish uchun bilimlarni egallay boshlaydi. Bu ilmlarni maktabgacha, muktab va oliy ta'limda o'zlashtiradi. Agar inson ilmni mukammal olsa va uni hayotga tatbiq etsa, uni nafaqat atrofidagi jumlayi mo'min, balki dunyo ommasi taniydi. Bejiz buyuk bobolarimiz ilmi bilan dunyo olimlarini lol qoldirmagan. Har birining ilmi bugungi kunimiz uchun ham necha asrlar o'tsa ham, dasturulamal bo'lmoqda. Ilm olishga jidd-u jahd qilmas ekanmiz, buyuk bobolarimiz Imom Buxoriy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'beklarga munosib voris bo'la olmaymiz. Umrimizning har bir daqiqasini bilim olishga qaratishimiz ham Vatanni sevish mas'uliyatidir. Sarmoyamizning eng katta qismini farzandlarning ilmi uchun ajratishimiz zarur. Har bir o'g'il-qizimiz ilm-u tafakkuri bilan dunyo yoshlarini hayratlantirsin.

Uchinchidan, umrimiz davomida olgan ilmlarimiz yo'nalishiga qarab kasbiy faoliyatimiz boshlanadi. Agar olgan ilmingiz sohasida faoliyat olib borsangiz, yillar davomida mazkur yo'nalishning professionaliga aylanasisiz. Bu o'z kasbini sevish degani. Sevgan kasbida faoliyat olib borish insonga zavq-u shavq bag'ishlaydi. Kimki o'z kasbinining ustasi bo'lmash ekan, na Vatanni sevishni tushunadi, na hayoti go'zal bo'ladi. Hatto ana shu faoliyat olib borayotgan sohasi ham rivojlanmaydi. O'z kasbini sevish, fidoyi bo'lish, rivojlantirish – Vatanni sevishdir. Uning mas'uliyati olgan ilmlarini o'zgalarga tarqatish va o'rgatishdan iborat.

To'rtinchidan, oilani muqaddas qo'rg'on deymiz. Chunki unda o'zimiz yashaymiz. U bejiz qo'rg'on nomini olmagan. Uni o'rab turgan himoya devorlari mustahkamligi bilan nomi qo'rg'on deya ataladi. Uning ichida yashovchi a'zolari



yomonlardan va yovuz kuchlardan himoyalanadi. Uning egasi ham, boshlig'i ham otamizdir. U bizni or-nomusi, g'ururi, vujudidagi joni bilan himoyalaydi. Shuning uchun oilamizning boshi va qo'rg'onning boshlig'i deb itoat qilamiz. Oilaning sir-asrorini saqlashga o'rgatadigan ham otamizdir. Oila va ro'zg'or ilmlarini ko'proq onadan o'rganamiz. Chunki onamiz qo'rg'onning ichki muhitini sog'lomlashtirishga mas'ul hisoblanadi. Demak, oilaning sirini saqlab, uni devor tashqarisiga chiqarmaslik, uni himoya qilish Vatanni sevish deyiladi. Xuddi oilani asragandek Vatanni ham asrash kerak. Oilamiz – kichik Vatanimiz.

Beshinchidan, inson bolasi o'zidan surriyot qoldirish uchun farzand ko'rishni niyat qiladi. Niyatlari ichida uning tarbiyasi mukammal bo'lishini, eng oliy yutuqlarga erishishini tez-tez aytib o'tadi. Ota-onaning farzandiga bergen tarbiyasi ham vatanparvarlikdir. Farzand kamolini ko'rishdek baxtni his etish ham Vatan oldidagi mas'uliyat, aslida. Bir farzandga yaxshi tarbiya berib, imon-e'tiqodi mustahkam, ilm-u tafakkuri yuksak holda voyaga yetkazish ota-ona oldidagi oliy vazifa hisoblanadi. Aksi bo'lsa, oila, jamiyat va daylat uchun ham zarardir. 2023-yil 22-dekabrdagi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishida Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon

talablariga javob beryaptimi?" degan savoli har bir ota-onani o'yantiradi. Tarbiya borasida zamondan ortda qolib, kechikishning qibatlari ma'nan yo'qotishlarga olib keladi. Buni yaxshi anglagan inson farzand tarbiyasida e'tiborsizlik qilmaydi. Uning kelajagi, tarbiyasi va ilmi uchun jonini hamda hamyonidagi bor daromadini sarflaydi. Behuda dabdbaba berilishdan o'zini tiyadi. Vaqtida berilmagan tarbiyaning asoratlari bir umrlik hayotini zulmatga aylantirishi mumkinligini his etgan inson jigarbandining qo'liga yaxshi kitoblar tutqazadi. Vatanni sevishi farzandiga bergan tarbiyasidan ma'lumdir.

Vatanni sevish mas'uliyati haqida yana ko'plab misol keltirishimiz mumkin. Shu o'rinda davlatimiz rahbarining 2022-yil 22-avgustdagagi tadbirkorlar bilan uchrashuvidagi bir tadbirkorning "Hayot formulangizning siri nimada, buncha energiyani qayerdan olasiz?" degan savoliga: "Bunda sir yo'q.


Vatanni sevish kerak!" dedi Prezident Haqiqatan ham Vatanni sevgan inson kuchli bo'ladi. Chunki uning zimmasida Vatan oldidagi burchlari eng ustuvor vazifaligini yaxshi anglaydi. Najmaddin Kubroning jasoratini tarixdan yaxshi bilamiz. Hamon bu buyuk qahramonlik tildan tushmagan. U hanuzgacha xalqimizni vatanparvarlikka, qahramonlikka chorlayveradi. Yurt bayrog'ini yov qo'liga topshirishni istamagan Najmaddin Kubro uni qo'lida mahkam tutgancha jon beradi. Dushman harchand urinmasin, uning qo'lidan bayroqni tortib ololmay, panjalari bilan kesib olgan edi. Aslida, Vatan bayrog'ini ko'zga surtish, uni to'tiyo qilish jonfido qilishga tayyor bo'lish deganidir.

Yana bir masala: Vatan tanlanmaydi. Qayerda tug'ilish - Allohning sizga in'omi. U istasa, Afrikaning cho'lida ham dunyoga kelishingiz mumkin. Vatan sevgisining ham o'lchovi yo'q. Uning kami yoki ortig'i, turi va darajasi bo'limgan. Vatanni sevish insonning fitratidagi tuyg'u bo'lib, uni hech kim tortib olishga qodir emas. Vatan tinchligini saqlashdek vazifani qaysidir o'g'lonlarimiz davlat chegaralarida, yana kimdir aholimiz ichidagi jamaat tartibini saqlash orqali bajaradi.

Xullas, yurtimiz tinchligini saqlovchi Vatan himoyachilarining qalbi va vujudi bizni va mamlakatni asrashga qaratilgan. Ularning kun-u tun xizmatga shayligi Vatanga bo'lgan sevgi va sadoqatidandir. Bu esa xalqimizga faxr beradi va Vatanimizning tinch bo'lishiga ishonch bag'ishlaydi. Uni asrash nafaqat Vatan himoyachilarining vazifasi, balki hammamizning burchimizdir. Vatanni sevish mas'uliyati doim qalbimizda va amalimizda bo'lsin!

Ma'rifat yo'li

JADIDAR



KONSEPSIYASINI DAVOM ETTERISH – MA'NAVIY BURCHIMIZ



Har qanday sohada yangilik qilish, ijodkorlik (kreativlik) namoyon etish, sohani yuksaltirish muhim vazifadir. Bugun jadidchilik tushunchasi asosiy diqqat markaziga chiqib turibdi. Buning sababi aynan yangilik qilish, millat tafakkurini yuksaltirishdir. Prezidentimizning madaniyat va ma'naviyat ahli bilan uchrashuvida aynan jadidlarning bugungi jamiyatimizga yetishmayotgani, ilg'or zamonamizda jadidlar kerakligi xususida muhim fikrlar aytib o'tilgani tahsinga loyiq.

O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo "Jadidlar" she'rida shunday yozadi:

*Shaxsiy namuna yo'q, chunki Ibrat yo'q,
Olimlar juda ko'p, bitta Fitrat yo'q,
Shu sabab majol bor, kuch bor, qudrat yo'q,
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.*

Bu gaplar ayni haqiqat. Har sohaning o'z jadidlari bo'lishi kerak. Bugun bizga Is'hoqxon Ibratlar, Abdurauf Fitratlar, Abdulhamid Cho'lonlar, Abdulla Avloniyalar zarur. Prezidentimiz jadidlar haqida so'z yuritib, chindan ham mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G'arb ilm-fani yutuqlari bilan birga milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrular suv bilan havodek zarurligini ta'kidladi.

"Jadid" so'zining lug'aviy ma'nosi "yangi" deganidir. Jadidchilik harakati Ismoil Gasprinskij tarafidan asos solingen yangi – jadid usulga asoslangan yangi maktabdan boshlandi. Birinchi jadid maktabi Gasprinskij tomonidan 1884-yili Qrimda, Bog'chasaroymda ochilgan bo'lsa-da, ayrim tadqiqotlarda jadidchilik XIX asr boshlarida yuzaga kelgan, degan fikrlar uchraydi. O'zbek matbuoti Turkiston tarixidagi jadidchilik harakati bilan juda tabiiy bog'lanadi. Aslida, jadidchilik ancha chuqur, murakkab, ziddiyatlari, ayni damda yangiliklarga, ezgu orzu-niyatlarga, amaliy faoliyatlarga to'la bir ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma'rifiy harakatdir.

O'tgan asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy vaziyat ancha tang ahvolda bo'lib, u mamlakat taqdiridan xavotirga tushgan ilg'or ziylolarni birlashishga va millatni uyg'otish uchun harakat qilishga undadi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Sadreddin Ayniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulvahob Burhonov, Fayzulla Xo'jayev, Ashurali Zohiriy, Ubaydulla Xo'jayev singari jadidlar bu ishga bel bog'ladilar. Ularning sa'y-harakati bilan Turkiston va Buxoro amirligida "Turon", "G'ayrat", "Qat'iyat", "Birlik", "Turk o'chog'i", "Tarbiyat ul-atfol" singari jamiyatlar paydo bo'ldi. Ushbu jamiyatlar faoliyati natijasi o'laroq ijtimoiy sohalarda qator o'ziga xos yangiliklar shakllana boshladi. O'z navbatida, bu kabi sa'y-harakatlarning qonunyu natijasi o'laroq mamlakatda yangi bir oqim paydo bo'ldi.

Turkistonning ijtimoiy hayot maydoniga madaniy-ma'rifiy oqim sifatida kirib kelgan va o'z oldiga eski maktabni isloh qilishni maqsad qilib qo'yan jadidchilik keng ijtimoiy harakat sifatida shakllangan. XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlariga kelib, jamiyatning eng ilg'or fikrli qatlamlari qarashlarini aks ettirgan milliy uyg'onish muayyan mafkura sifatida, birinchi navbatda, ma'rifatchilikda ko'rindi. Ana shu mafkuraning jarchilari bo'lgan jadidlar esa keng

miqyosli amaliy faoliyat bilan o'z g'oyalarining jamiyat hayotida qaror topishi, mustahkamlanishi va oxir-oqibat, ular ko'zlagan milliy ozodlik, siyosiy mustaqillik uchun zamin yaratma boshladilar. Bu butun Turkiston xalqining ijtimoiy-siyosiy tafakkuri taraqqiyotida yangi bir bosqich edi.

Dastlab mustamlaka hukmronligiga qarshi kurashish uchun ijtimoiy milliy ongni shakllantirishga bel bog'lagan harakat namoyandalari bu yo'ldagi eng katta to'siq bo'lgan diniy mutaassiblik, jaholat, qoloq turmush tarzi, iqtisod, madaniyat va ma'naviyatning chirkin ko'rinishlarini yo'q qilish lozimligini juda erta tushundilar. Jadidchilik harakatining dastlabki bosqichi aynan mana shu kayfiyatni ifodalaydi. Ular o'lkani qoloqlik va zulmdan ozod etishning bosh yo'lini avvalo madaniy-ma'rifiy yo'nalishda deb biladilar va yangi usuldagи maktablar ochish orqali xalqni yangi ijtimoiy-madaniy o'zanga burishga intildilar. Ularning sa'y-harakatlari natijasida juda tez fursatda yangi maktablar faoliyat boshladi va o'ziga xos uslubda ma'rifiy ishlar yo'lgan qo'yildi.

Jadidlar millat tafakkurini yuksaltirish harakatida bo'ldilar, milliy ozodlik g'oyalarini ilg'or targ'ib etdilar. Ular xalqimizni ozod va hur bo'lishga da'vat qildilar. Yurt ozod bo'lishi, mamlakat farovon bo'lishi uchun tinmay harakatda bo'ldilar. Jadid ziyolilari uchun eski usuldagи maktablarni isloh etish, badiiy adabiyotni yangi o'zanga solish, teatr sahnasidan ibratxona o'rnida foydalanish naqadar muhim bo'lsa, milliy matbuot tashkili va taraqqiyysi ham shu darajada ahamiyatli edi. Samarqandlik jadid Hoji Muin ta'kidlaydi: "Matbuot bir millatni uyg'otish uchun birinchi omil bo'lg'onidek, uning tarixi ham "uyg'onish davri" tarixining muhim bir bo'lagi sanaladur". Darhaqiqat, matbuot o'zbek jadidchilik davri tarixida juda muhim o'rinn tutadi.

1906-yili jadidlarning birinchi "Taraqqiy" gazetasi chiqarildi. Biroq "Taraqqiy" gazetasining faoliyati nihoyatda qisqa bo'ldi. Yigirma soni chiqqandan keyin gazeta yopib qo'yildi. Shundan keyin Munavvar qorining "Xurshid" (1906-yil, sentabr), Abdulla Avloniyning "Shuhrat" (1907-yil, dekabr) gazetalarini chiqarila boshlandi. Biroq bu gazetalarning ham faoliyati uzoqqa cho'zilmaydi. O'z g'oyalari, maslaklari targ'ibi uchun naqadar foydalni ekanini chuqur anglagan jadidlar matbuot yo'lida sa'y-harakatdan to'xtamadi. "Tujjor", "Osyo", "Samarqand", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona", "Tirik so'z" kabi gazetalar yonida Mahmudxo'ja Behbudiyning "Oyina" jurnali paydo bo'ldi. 1913-1915-yillarda "Oyina" jurnalining oltmish sakkiz soni bosildi.

Jadidlar faqat gazeta bilan cheklanib qolmadilar. Ular yangi usul maktablari va teatrлar tashkil qildilar. Millatni uyg'otish, tafakkurini yuksaltirish, ozodlik

sari boshlash uchun san'at va adabiyotdan faol foydalandilar. Mamlakatni ma'rifat sari yetaklashga bel bog'lagan ushbu harakat namoyandalari o'z oldiga qo'yan maqsadlarga erishish uchun faqatgina maktablar faoliyatini yo'lgan qo'yish kam ekanini juda erta angladilar. Ularning orzu-niyatlarini amalga oshirish uchun juda keng qamrovli faoliyat zarur edi. Mana shu hayotiy ehtiyoj va zaruriyat tufayli bu harakat tarafdborlari teatr san'ati tomon yuz burdilar.

O'zbek teatrining shakllanishida jadidchilik harakati tarafdborlari, xususan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonovning xizmati katta bo'ldi. Aynan ularning sa'y-harakatlari tufayli juda tez fursatda teatrлar tashkil etildi. Ilk o'zbek teatri deb ataladigan "Turon" truppassi o'zining birinchi mavsumini Mahmudxo'ja Behbudiy qalamiga mansub "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi" spektakli bilan boshlagan. "Padarkush" dramasida jaholat botqog'idan xalos bo'lish, qabohat domiga tushmaslikning yagona yo'li ilm va ma'rifat ekani uqtiriladi.

Jadid ma'rifatparvarlarining qarashlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning aksariyati oilada tarbiyani to'g'ri yo'lgan qo'yishga jiddiy e'tibor qaratganlar. Ulug' jadid ma'rifatparvari Abdurauf Fitrat qayd etganidek: "Ota-onha o'z farzandining tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishi kerak, ammo farzand tarbiyasi bilan shug'ullanadigan ota-onanining, avvalo, o'zlarini tarbiya ko'rgan, farzand tarbiyasi haqida muayyan bilimga ega bo'lishlari kerak, ularning har ikkisi o'z vazifasini, ota-onalik burchini mukammal ado etishlari, toki ular farzandni jisman, aqlan va axloqan kamolga yetishtirib, hayot maydoniga kuchli, aqli va yaxshi axloq bilan chiqarishi zarur". Zero ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebabu didaktik meros yoshlari ta'limga tarbiyasida muhim omil vazifasini o'taydi. Bugungi kunda ular tomonidan yaratilgan ta'limga tarbiya usullarini xorijiy ilg'or tajribalar bilan uyg'unlashtirish va ta'limga tarbiya usullarini unumli foydalanish, o'z navbatida, ta'limga tarbiyona kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. Bugungi kunda globallashuvning tobora avj olishi tarbiyaga yangicha va tizimli yondashuvni taqozo etmoqda. Hozirgi paytda dunyo miqyosida keskin tus olib borayotgan shiddatli raqobatga faqat innovatsion-kreativ yutuqlarni keng targ'ib qilish hamda ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy meros orqali munosib javob berish strategik vazifa sifatida kundalik faoliyatimizda ustuvor yo'nalishga aylanmoqda. Binobarin, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy meros yosh avlodni tarbiyalashda biz, avlodlarga g'urur bag'ishlaydi va insonlar qalbidagi Vatan mehri oliy qadriyat ekanini anglatadi.

**Muyassar SAIDOVA,
erkin tadqiqotchi**

VATAN, TUFRQG'INGGA

RAYHONLAR EKDIM



chinorlar, boshoqlari dengizdek chayqalib yotgan bug'doyzorlar, to'lg'anib-to'lg'anib oqayotgan Amudaryo, Sirdaryolarimiz... Peshanasini qiyiq bilan tang'ib, ona yer ko'ksidan rizq undirayotgan oqko'ngil, saxiy, mard elimiz... Bular bizni onadek ardoqlovchi Vatanimiz suvratining zarralaridir.

93 yoshida bandalikni bajo keltirgan Salimboy buvam ona zamin ko'ksida jannat yaratuvchi bog'bon edilar. Taqir, suv chiqmas joylarda cheksiz tokzorlar, mevazorlar barpo qilar, qish oldidan toklarni bolalardek avaylab, yo'rgaklab, ustini tufroq bilan yopar, ilk bahorda toklar kurtak chiqarmasidan xomtok qilib, sochdek tarab, xotirjam bo'lardilar. Oq olma, qizil olma, qirmizak olma, o'n xildan ziyod o'rik turlari, pishganda kichkina piyoladek, lablaridan bol tomib turadigan anjirlar, nonjiydarlar... bobom qadoq qo'llarining mahsuli edi. Bobomning sertomir qo'llari ulkan daraxt ildizlarini eslatardi menga. Ular ona tufroqni, Vatanini o'zicha ana shunday sevardilar, ana shunday ardoqlardilar. Ona tufroq bunday sevgiga to'lib-toshib, ulug' rizq ila javob qaytarardi.

Men hozir mamlakatimizni mudofaa qilayotgan aziz o'g'lonlarimiz, Alpomishlarimizga qarab, bobomning ko'zlaridagi, buyuk ajdodlarimizning vasiyatlaridagi ona Vatanni jannatga aylantirmaq, uni jondan sevmoq, lozim bo'lsa, jonni fido qilib asramoq haqidagi tavallolarni ko'raman va o'qiyan.

Shukur. Bugun dunyo havas qiladigan qudratli armiyamiz, mudofaa qo'rg'onimiz bor. Burgutdek shiddatli yigitlarimizni ko'rganimda, ularning yonib turgan ko'zlariga qaraganimda, ona Vatan suvratini ko'raman. Ona allalarining sehrli ohanglari tomirlardagi qonlarda oqayotganiga ishonaman. Yurtni ozod va obod ko'rmoq ajdodlarimizning asriy orzulari edi. Dunyo ahli havas bilan qarayotgan bugungi hayotda, har birimiz uchun orzu qilgan imkoniyatlar ro'yobga chiqayotgan qutlug' zaminda yashashning o'zi iftixor. Shu yurtga daxldor ekanligimizdan doim faxrlanaman. Shuningdek, mamlakat fuqarosi sifatida uni asrash va avaylash, muqaddas tufrog'ini ko'zga surishning o'zi bir baxt ekanligidan quvonaman, mas'uliyat yukini yanada chuqurroq his qilaman.

Mana shunday ajib tuyg'ular og'ushida sarmast ekanman, ko'nglimda she'r shivirlaydi:

*Qalbni oyog'osti qilib bo'lmaydi,
Millatni, g'ururni bo'lmaydi sotib.
Vatanni o'tlarga otib bo'lmaydi,
Vatanni yurakdan bo'lmas yo'qotib.*

...Bizning yigirmanchi asrda kechgan bolaligimiz bilan bugungi baxtiyor avlod hayoti orasidagi tafovut go'yo yer bilan osmon qadar. Bizning avlod deyarli tilimiz, dinimiz, tariximiz unutilayozgan tuzumda yashadik. Muzdekk partalar, maktab deb atalgan bostirmalar, loyga botgan kalishchalar, sovuqdan "kuh-kuh"lab isitilayotgan qo'lchalar hozirgidek ko'z

o'ngimda... Ona Vatanning ma'yus ko'zlar, munlig' dunyosi zamon qalbidagi qonli jarohatlar edi... Xalq otayotgan har bir tongga umid ko'zlarini tikkan edi. Yorug' kunlarni tushlarida ko'rmoq umidi ila yostiqqa bosh qo'yardi.

Bugun esa:

*Siz atrofqa qarang, o'zbek kimligin,
Butun dunyo ahli sezib turibdi.
Bugun o'zbegimning guldek go'dagi
Dunyo ilmi aro o'zib yuribdi.
Bugun O'zbekiston tushdi maydonga,
O'zbek halol kurash nonini totar.
"Yo, pirim!" deb dunyo belbog'in ushlab,
Harifin dast ushlab, ko'klarga otar.*

"Obod qishloq", "Obod mahalla" larning jamol ko'rsatishi... O'zbekistonning buyuk uyg'onish davriga kirishi... Taraqqiyotning hamma tizimidagi amaliy harakatlarda barchamiz uchun ko'z qorachig'idek aziz Vatan bo'y-basti bilan namoyon bo'lib turibdi. Vatanparvarlik oyliklarining o'tkazilishi, azamat yigitlarimiz jangovar mashg'ulotlarda po'latdek toblanib borayotgani, tarixning unutilayozgan qatlaridan o'zligini namoyon qilayotgan ulug' bitiklar millat posbonlari bo'lgan navqiron dunyoga uni jondek asrash sabog'ini o'rgatadi.

Zero hadisi sharifda aytilganidek: "Vatanni sevmoq imondandir!"

*O, ko'zlar o'tdek yonib turgan o'g'lon,
Shaxting ko'kda qanot yozgan burgutsimon.
Gurs-gurs bosgan qadamingga fidodir jon,
Shul Vatanning pahlavoni bo'lib yurgil.
Seni ona To'marislar aylar duo,
Shiroq sahro o'rtasinda qilar nido.
Bo'ylaringga bo'ytumorlar taqar dunyo,
Shul Vatanning zo'r arsloni bo'lib yurgil.
Kunduz quyosh, tunda oy o'z nurin tutar,
Tongda g'uncha sezdirmayin maktub bitar.
Ona Vatan sendan ulug' ishlar kutar,
Shul Vatanning qahramoni bo'lib yurgil.
Sen borsanki, yurtga qadam qo'ymas g'anim,
Sen borsanki, orom erur uyqularim.
Bo'ylaringda Jaloliddinni ko'rganim,
Shul Vatanning bek, sulton bo'lib yurgil.
Moziy ko'ksin yoritadi bir hovuch nur,
Shamol kabi arg'umog'ing - behad uchqur.
Vatan asli o'zingdadir, o'zingdadir,
Shul Vatanning zo'r imoni bo'lib yurgil.
O'zbekiston, onajonim, qutlug' diyor,
Ko'ksingga bosh qo'ygan tog'dek farzanding bor.
U bag'ringdan aritmaydi mangu bahor,
Sen xalqimning pok vijdoni bo'lib yurgil!*

Sharifa SALIMOVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi,
"Mehnat shuhrati"
ordeni sohibi

Shoir Sidqiy Xondayliqiy muqaddas ona Vatanga shunday ta'rif bergan:

*Vatan nadir, tug'gan yerim, turgan yerim,
Unib-o'sib, o'ynab-kulib yurgan yerim.*

*Jonim Vatan, qalbim Vatan, ko'zim Vatan,
Esdan chiqar oni ko'rgach, ko'rgan yerim...*

Chindik qonimiz to'kilgan tufroq sajdagog kabi muqaddasdir. Tomirlarimizdagi qonga qo'shilib oqayotgan bu tuyg'u inson qismatini belgilaydi. U ko'z qorachig'i kabi asraladi. Ona To'marisning qasami kabi asrlar ko'ksidan suron solib keladi. Sohibqiron Amir Temur nafasi bo'lib, qalbimizni junbishga soladi. Jaloliddin Manguberdi bo'lib, daryordan sakrab o'tadi. Shayx Najmuddin Kubroning qo'lidan yog'iylar sug'urib ololmagan bayroq bo'lib, qalblar osmonida mangu hilpiraydi. Qurbonjon dodhoh bo'lib, oq otda o'g'liga rizoligini aytmoq bo'lib, dor tagiga keladi. Istiqlol O'zbekistonining hur tug'rosi bo'lib, BMT binosi oldida mag'rur ko'kka intiladi.

Vatan! Bosh qo'yuvchi ulug' mehrobim,

Yotganda to'shagim, suyansam tog'im.

Shu jannat go'shani yo'g'-u borimni,

O'zing panohingda asra, Xudoyim.

Men o'zga boylikning emasman quli,

Dunyo ganjinasi uyg'otmas havas.

Tangrim, shu tufroqning qush-qumursqasin,

Kiyiklarin burni qonamasa bas!

Biz doim kaftimizni to'ldirib suv ichayotgan tiniq buloqlar, telegramizni azamat vatanparvar o'g'lonlarimizdek qo'riqlab turgan tog'lar, shoxlari osmon ko'ksiga tiralib, duoga qo'l ochayotgan

“Jizzax tajribasi” amalda

HAYOT MAKTABIGA PARVOZ

Ortda qolgan 2023-yil barcha jabhalar qatori Mudofaa tizimida ham salmoqli yil bo’ldi. Qo’shinlarning jangovar shayligi bir necha barobarga ortdi, moddiy ta’minoti yanada yuksaldi. Ayniqsa, yoshlar ishtirokidagi tadbirlar, yig’inlar keng quloch yoydi.

Jasorat maktabi. Mudofaa vazirligi va qator mutasaddi tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan mazkur o’quv yig’inni o’z nomiga mos va xos ravishda yoshlarni matonatli, qat’iyatli, mustahkam iroda va aniq maqsadli etib tarbiyalashga xizmat qilyapti. Dastlab, Jizzax viloyatida start olgan va bugungi kunga kelib, aksariyat yoshlarimizning hayotida tub burilish yasagan 10 kunlik o’quv yig’ini Prezidentimiz tomonidan ham “Jizzax tajribasi” sifatida yuksak e’tirof etildi va amaliyotga joriy qilindi.

Albatta, biror kasb yoki hunar egallash, tadbirkorlik faoliyatini yo’lga qo’yish har qanday inson uchun kelgusi hayot yo’lidagi eng muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Ayni shu jihatdan mazkur o’quv yig’ini doirasida sohasining malakali mutaxassislari tomonidan harbiy fanlardan tashqari, kasbga yo’naltirish bo’yicha nazariy va amaliy mashg’ulotlar o’tkazilib, unda yoshlar elektrik, avtoelektrik, santechnik, dvigatel ustasi, payvandchilik va chilangarlik kabi 10 dan ortiq kasbhunar sir-asrorlarini egallashyapti. Bundan tashqari, yoshlarni tadbirkorlikka yo’naltirish bo’yicha hamkor tashkilot va tijorat banklarining yetakchi mutaxassislari tomonidan biznes-treninglar o’tkazilib, yangi loyihamoqda.

Kelajagimiz vorislari o’rtasida sog’lom turmush tarzini targ’ib etish maqsadida turli sport musobaqlari, taniqli sportchilar ishtirokida uchrashuvlar uyuhshtirilmoqda. Shuningdek, “Uch avlod” hamda “Qo’mondon va yoshlar” kabi tadbirlar yoshlarni egzu maqsadlar sari yetaklayapti. Konsert dasturlari-yu turli zakovat va kitobxonlik tanlovlari ularning madaniy hordiq olishlari, bilimlarini yanada oshirishda muhim o’rin tutmoqda.

Bugun biz “Jasorat maktabi” o’quv yig’ini tamomlab, hayotda o’z o’rnini topgan, ta’lim yoki kasbhunar bilan mashg’ul bo’lib kelayotgan yoshlar haqida hikoya qilamiz. Dastlabki manzilimiz esa Jizzax shahri.

Diyorjon QOBULOV:

– 2004-yil Jizzax shahrida tug’ilganman. 2023-yilgi “Jasorat maktabi” o’quv yig’ini ishtirokchisiman. 10 kunlik o’quv yig’iniga bormasimdan oldin menda tartibsiz hayot, ya’ni bemaqsad ko’chada yurishlar ko’p bo’lgan. Mazkur yig’in ishtirokchisiga aylanganimdan so’ng hayotim tubdan o’zgardi. Xususan, “Jasorat maktabi”da IT sohasi bo’yicha bilimimni oshirdim. Bugungi kunda aniq maqsadlarim bor. Bu yo’ldan esa og’ishmay bormoqdaman. Hozirda O’zbekiston yoshlar ittifoqi Jizzax viloyati kengashida ish faoliyatimni olib boryapman. Shuningdek, Toshkent xalqaro moliya boshqaruvi va texnologiyalari universitetining sirtqi bo’limida tahlil olib kelmoqdaman. Aytishim kerakki, “Jasorat maktabi” menga hayot maktabini o’tadi.

...Navbatdagi manzilimiz Jizzax viloyati markazidan qariyb 50 km olisda joylashgan Zafarobod tumanidagi “Bo’ston” va “Cho’liguliston” mahalla fuqarolar yig’ini. Bu yerda Sunnat Ochilov istiqomat qiladi. U ham “Jasorat maktabi” o’quv yig’ining uchinchi mavsum ishtirokchisi. Xo’sh, uning hayotida qanday o’zgarishlar yuz berdi?

SUNNAT OCHILOV:

– Bemalol aytta olamanki, “Jasorat maktabi” hayotimga katta o’zgarishlar olib keldi. Bilmagan, o’zimda his qilmagan narsalarimni anglatishga yordam berdi. Juda ko’p do’stlar orttirdim. U yerda IT yo’nalishi menga ko’proq ma’qul keldi va bu bo’yicha ilk saboqlarni oldim. Ochig’i, menda shaxsiy kompyuter yoki ortiqcha mablag’ yo’q edi. Bu masalada Mudofaa



vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi va Yoshlar ittifoqi vakillarining sa’y-harakati hamda ko’magi bilan 14 foizli imtiyozli kredit mablag’lari ajratildi. So’ng mo’jazgina kompyuter xizmati shoxobchasini ochdim. Hozirda bu yerda aholiga kompyuter xizmatlarini ko’rsatib kelmoqdaman. Qo’shimcha ravishda IT sohasidagi ishlarni ham yurgiziyapman. Dasturchi do’stlarim bilan yangi loyihamoqda.

Bu haqda O’zbekiston yoshlar ittifoqi Jizzax viloyati kengashi harbiy qismillardagi boshlang’ich tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo’lim boshlig’i podpolkovnik Rahmonjon Ochilov quyidagi fikrlarni bildirdi:

– 2023-yil davomida “Jasorat maktabi” o’quv yig’iniga Jizzax viloyatidan muqim bir ish joyiga ega bo’lmagan, “Yoshlar daftari”da turgan yoshlarimizni jalb qilgan holda har bir yig’inimizga 100 nafardan jami besh mavsumda 500 nafar yoshni qamrab oldik. Ular yig’in jarayonida harbiy mutaxassislik, kasb-hunarni o’rganish, tadbirkorlik va IT yo’nalishlarida o’qilib, mashg’ulotlar o’tildi.

Mana shu 500 nafar yoshning necha foiz bandligi ta’minlandi? Necha foizi ma’lum bir kasbhunar yo’naltirildi? Yoki necha foiziga banklar tomonidan imtiyozli kredit mablag’lari ajratilishida amaliy yordamlar ko’rsatildi?

– 500 nafar yoshdan 160 nafarga yaqiniga imtiyozli kredit mablag’lari ajratib berildi. 7 nafari muddatli harbiy xizmatga yuborildi. 150 nafar yoshga safarbarlik chaqiruvni rezervi badallari to’lab berildi. 43 nafar ishtirokchiga yer ajratilib, dehqonchilik bilan shug’ullanish uchun shart-sharoitlar yaratib berildi. 80 nafarga yaqin yosh esa davlat va nodavlat tashkilotlarda faoliyat yuritmoqda. Qolgan yoshlarimizga esa subsidiyalar ajratildi.

Darhaqiqat, “Jizzax tajribasi” amaliyotda o’z so’zini aytdi. Respublikamiz bo’ylab 5 ming nafardan ortiq yoshlar mazkur o’quv yig’iniga jalb etildi. “Jasorat maktabi” o’quv yig’ini tamomlagan yoshlarning aksariyati ayni vaqtida o’z kasbiga, hunariga yoki biznesiga ega. Ana shunday yoshlarimizdan biri Samarqand viloyatining Jomboy tumanida istiqomat qilayotgan Yo’ldosh Ergashevdir.

Yo’ldosh ERGASHEV:

– 2023-yilning sentabr oyida “Jasorat maktabi” o’quv yig’inida ishtirok etdim. U yerda meni hayotga, Vatanga, oilamga bo’lgan qarashlarim tubdan o’zgardi. Sartaroshlik kasbiga qiziqishim bor edi. Mazkur o’quv yig’ini davomida ushbu hunar bo’yicha dastlabki bilimlarni oldim. “Jasorat maktabi”dan so’ng ustozlarim bilan tuman markazidagi sartaroshxonada o’z faoliyatimni boshladim. “Yoshlar daftari”ga kiritildim. Menga mazkur kasb-hunarimda qo’l keladigan asbob-uskunalar beg’araz olib berildi. Maqsadim bu kasbni yanada mukammal o’rganib, kelgusida ko’plab shogirdlar chiqarish.

Aytishim kerakki, Mudofaa vazirligi va mutasaddi tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan “Jasorat maktabi” 10 kunlik o’quv yig’inida yoshlarimiz faol ishtirok etib, kelgusi



hayot yo’li uchun ishonch bilan yangi sahilalarini ochmoqda. Ularning Vatanga, oilaga, davlat va jamiyatga bo’lgan qarashlar o’zgaryapti. Bu kabi amaliy ishlar, olib borilayotgan sa’y-harakatlardan ko’rinadiki, Yangi O’zbekiston – chindan ham yoshlar mamlakati. Armiya esa jasorat, matonat va bilim maskanidir!

Abror TOSHMATOV,
jurnalist



Mualif surʼatga olib
Oliy Majlis Senatida Mudofaa va xavfsizlik masalalari qoʼmitasi majlisi boʼlib oʼtdi. Unda Oliy Majlis Senatida Mudofaa va xavfsizlik masalalari qoʼmitasi tomonidan 2023-yildagi faoliyati hisoboti va 2024-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar muhokama qilindi.

Qoʼmita majlisida senatorlar, qoʼmita huzuridagi ekspert guruhi aʼzolari, Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Togʼ-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi bojxona qoʼmitasidan taklif qilingan masʼul rahbarlar hamda professor-oʼqituvchilar va fan doktori ilmiy darajasiga ega ekspertlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Majlis davomida qoʼmita raisi Q. Burxonov 2023-yildagi faoliyat yuzasidan oʼz axborotini oʼqib eshittirdi. Taʼkidlanganidek, qoʼmita mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning qonuniy asoslarini mustahkamlash, ularning natijadorligini taʼminlashda parlament nazoratini olib borish jarayonlarida faol qatnashdi.

NATIJALAR MUHOKAMASI VA ISTIQBOLDAGI REJALAR



Koʼrib chiqilayotgan har bir qonun va masala muhokamasida inson haq-huquqlarini, yurtimiz taraqqiyotini taʼminlash, hududlar manfaatlарини ilgari surish kabi jihatlarga alohida eʼtibor qaratdi. Shuningdek, xalqaro maydonda davlatimiz imijini yaxshilash, jumladan parlamentlararo munosabatlarni rivojlantirish, mahalliy kengashlar faoliyatini kuchaytirish kabi muhim yoʼnalishlarda ish olib bordi.

Qoʼmita majlisida 2024-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlarga ham qisqacha toʼxtalib oʼtildi.

Majlis soʼngida koʼrilgan masalalar yuzasidan qoʼmitaning tegishli qarori qabul qilindi.

**Kapitan Aziz NORQULOV,
“Vatanparvar”**

Islohot



Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganligining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bayrami arafasida Nukus hududiy uy-joydan foydalanish qismida kapital taʼmirdan chiqarilgan avtomobil texnikalarini saqlash parki foydalanishga topshirildi.

Avtopark majmuasi foydalanishga topshirildi



Tadbirda Shimoli-gʼarbiy harbiy okrug qoʼshinlari qoʼmondoni general-major Farhodjon Shermatov, harbiy xizmatchilar hamda Qurolli Kuchlar xizmatchilari ishtirok etdi. Qoʼmondon oʼz nutqida ushbu obyekt 1990-yilda bunyod etilgani hamda olib borilgan kapital taʼmir ushbu obyektga “yangi hayot” bagʼishlaganini, endilikda bu yer ham obod maskanga aylantirilganini eʼtirof etdi.

Soʼnggi yillarda Nukus hududiy uy-joydan foydalanish qismidagi eskirib, yaroqsiz holga kelib qolgan texnikalarni yangilash borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilganini eʼtirof etish joiz. Jumladan, Mudofaa vazirligi tomonidan “KamAZ” rusumli avtotransport bazasiga oʼrnatalgan 16 tonna yuk koʼtarishga moʼljallangan bir dona avtokran, bir

dona “WZ-30-25” rusumli ekskavator yuklovchi traktor, suv tashishga moʼljallangan texnika taqdirm etildi.

Soʼzga chiqqanlar yillar davomida taʼmortalab holatga kelib qolgan ushbu obyektda maxsus texnikalarni saqlash, ularga texnik xizmat koʼrsatish, umuman olganda, texnikalarni tabiiy iqlim sharoitlaridan asrab-avaylashda qator muammolar mavjud boʼlganini taʼkidlab oʼtishdi.

Mudofaa vazirligi tomonidan ajratilgan pul mablagʼlari evaziga avtomobil texnikalarni saqlash parki qayta jonlanib, yangi ufq zavqini tuydi, desak mubolagʼa boʼlmaydi. Bu yerda amalga oshirilgan kapital qurilish ishlari natijasida bokslarda isitish tizimi oʼmatilib,

texnikalarni saqlash sharoiti yaxshilandi. Endilikda parkda ilgari boʼlмаган mashinalarga texnik xizmat koʼrsatish va taʼmirlash tarmogʼi, ustaxonalar, haydovchilarni tayyorlash sinfi, park boʼyicha navbatchining xonalarini, haydovchilar dam olishi va yuviniishi uchun xonalar barpo etildi.

Bularning barchasi maxsus texnikalarni soz va shay holatda saqlab turish, ularga sifatli texnik xizmat koʼrsatish, bir soʼz bilan aytganda, harbiy xizmatchilarga zamонави shart-sharoitlarni yaratish maqsadida bunyod etildi.

**Podpolkovnik Timur NARZIYEV,
Shimoli-gʼarbiy harbiy okrug
matbuot xizmati boshligʼi**

Mardlar safida

ENDI BU QIZNI

DOVYURAK JANGCHI DEB ATASHADI



Samarqandning Paxtachi tumanida tug'ilib o'sgan Dilnavoz Sherqulovaga nisbatan nozik, samimi, qat'iyatlari, xushchaqchaq, oqila sifatlari yoniga bundan buyon dovyurak sifati ham qo'shiladigan bo'ldi. U 2023-yil mard yigitlari qatorida "Dovyurak jangchi" farqlovchi nishoniga sazovor bo'ldi.

- Ota-onam biz – farzandlarining sog'lom voyaga yetishi uchun bolaligimizdan jiddiy e'tibor berishgan. Oilada 3 o'g'il, 2 qiz edik. Akalarim va opamga ergashib men ham sport to'garaklariga qatnardim. Uyda biz bilan otam alohida shug'ullanardilar. Maktabda o'qib yurgan kezlarim bir qator sport musobaqalarida faxrli o'rinnlarni egalladim, keyin kattaroq maydonlarda. Yutuqlarim haqida o'ylaganda meni shu sohaga qiziqtirgan, qo'llab-quvvatlagan ota-onamdan minnatdor bo'laman, – deydi aloqachi kichik serjant Dilnavoz Sherqulova.

U O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ta'sis etilgan "Dovyurak jangchi" farqlovchi nishoniga Intensiv sinovlarda ishtirot etib, sazovor bo'ldi. U ayni paytda Markaziy harbiy okrug Samarqand garnizonidagi harbiy qismalarning biridagi aloqa vzvodida xizmat qilmoqda.

- Qo'l jangi sport turida ko'plab natijalarga erishdim. Xalqaro musobaqalarda g'alabaga erishganimda boshqa davlatlar bayroqlari qatoridan

Vatanim bayrog'ini madhiyamiz hamohangligida hilpirashidan judayam faxrlandim. Yaratganga shukrlar bo'lsinki, maqsadlarimga erishdim, – deydi kichik serjant Dilnavoz Sherqulova. – Ayol kishi uchun harbiy bo'lishning mashaqqatlari bor, lekin Vatan uchun xizmat qilish g'urur, iftixor bag'ishlaydi. Egnimdag'i harbiy libos men uchun sharaf! Harbiy xizmatda ko'plab musobaqalarda ishtirot etish, xizmat safarlarida bo'lish, armiyamiz sharafini himoya qilish, qo'mondonim bildirgan ishonchni oqlash va yuqori natijalarga erishish uchun bor kuch-g'ayratimni ayamayman.

Dilnavozning shu davrgacha erishgan yutuqlarining ba'zilariga nazar tashlang:

- 2015-yil. Navoiy viloyati birinchiligidagi 50 kg vaznda bolalar, o'smirlar va kattalar o'rtasida sportning Kombat aikido turi nokdaun yo'nalishida 1-o'rin;

- 2016-yil. Sirdaryo viloyatida o'tkazilgan Amir Temur kubogi xalqaro ko'rik-tanlovida Jit Kun-Do sport turi bo'yicha 1-o'rin;

- 2017-yil. Toshkent shahrida Bryus Li xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro ko'rik-tanlovida Jit Kun-Do yo'nalishi bo'yicha 2-o'rin;

- Farg'ona shahrida Jit Kun-Do sport turi bo'yicha yoshlar va o'smirlar o'rtasida 60 kg vazn toifasida o'tkazilgan O'zbekiston championatida I darajali diplom;

- 2018-yil. Toshkent shahrida o'tkazilgan qo'l jangi sport turi bo'yicha xalqaro musobaqada 1-o'rin;

- Toshkent shahrida o'tkazilgan O'zbekiston ochiq championatida faxrli 1-o'rin;

- 2019-yil. Toshkent shahrida qo'l jangi sport turi bo'yicha kattalar o'rtasida 55 kg vazn toifasida faxrli 1-o'rin;

- 2020-yil. Mudofaa vazirligi miqyosida o'tkazilgan "Tinchlik jangchisi" musobaqasida 1-o'rin;

- 2021-yil. Mudofaa vazirligi miqyosida o'tkazilgan "Armiya biatloni"



musobaqasida 2-o'rin; yugurish marafonida 3-o'rin;

- 2023-yil Mudofaa vazirligi miqyosida o'tkazilgan "Ayollar spartakiadasi" musobaqasida armrestling bo'yicha 2-o'rin;

- 2023-yil "Dovyurak jangchi" farqlovchi nishoniga da'vogarlik qildim. Mard o'g'lonlar qatorida bunday ulug' nom olish va farqlovchi nishon bilan taqdirlanish ulkan yutuqlarimdan biri bo'ldi. Men, bundan-da yuqori natijalarga erishishga va Vatanim uchun xizmat qilishga doimo tayyorman. 2024-yilda oldimga ko'plab maqsadlar qo'ydim, ulardan biri xalqaro armiya o'yinlarida ishtirot etish va rekord natija ko'rsatish, – deb so'zini yakunlaydi qahramonimiz.

**Parvina
ABDUHAMIDOVA,
Markaziy harbiy okrug
matbuot xizmati
bosh mutaxassisini**

Festival

14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan "Sog'lom hayot uchun 5 000 qadam" shiori ostida harbiy-vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi.



Sog'lom hayot uchun 5 000 qadam



Mudofaa vazirligi Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, Toshkent harbiy prokururaturasi va Yoshlar ishlari agentligi hamda Zangiota tumani hokimligi, mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti bilan hamkorlikda o'tkazilgan tadbirda faxriylar, mahalla faollari, "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati a'zolari va bir guruh yoshlar ishtirot etdi.

Tadbir "Sog'lom hayot uchun 5 000 qadam" shiori ostida marafon yurish bilan boshlandi, turli ko'rgazmali

chiqishlar, robototexnikalar, harbiy qurol-aslasa va texnikalar namoyishi, sport musobaqalari hamda kamondan va turli o'quv qurollaridan otish mashg'ulotlari barchaga manzur bo'ldi.

Festival yakunida mehmonlar uchun harbiy institutda ekskursiya tashkil etildi. Faol ishtirot etganlar tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Impuls harbiy ansambl jamoasining sho'x-shodon qo'shiqlari barchaga xush kayfiyat ulashdi.

Mayor Sherqo'zi XAKIMOV
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
va aloqa harbiy instituti



Xabaringiz bo'lsa, harbiy xizmatchi ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, harbiy jamoalarda ularning o'rnnini oshirish, kundalik xizmatda faol ishtirokini ta'minlash maqsadida Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi ayollar o'rtasida "Vatan mehri yuragimda" shiori ostida "To'maris izdoshlari – 2023" respublika tanlovi o'tkazilgan edi. Unda Mudofaa vazirligi terma jamoasi faol ishtirok etib, faxrlı birinchi o'rinni qo'lga kiritgandi.



TO'MARIS IZDOSHLARI TAQDIRLANDI



Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyat akademiyasi katta majlislar zalida mazkur tanlov ishtirokchilarini taqdirlashga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Unda mudofaa vazirining o'rnbosari general-major Hamdam Qarshiyev, harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar xizmatchilari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda so'zga chiqqan general-major Hamdam Qarshiyev bugun yurtimizda har bir sohada, shu jumladan harbiy xizmatda ham ilg'orlikka erishayotgan ayollarning sha'niga iliq

fikrlar bildirdi. Ulardagi yuksak bilim, malaka matonat va jasoratni e'tirof etib, kelgusi xizmat faoliyatlariga yanada ulkan zafarlar tiladi.

Tantanada aytilgan samimi fikrlar, bildirilgan tilaklarga hamohang ravishda "To'maris izdoshlari – 2023" tanloving 13 nafr g'olib mudofaa vazirining diplom va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi. Darvoqe, jamoani yuqori darajada tayyorlashda xizmat qilgan bir guruh shaxsiy tarkibning mehnati ham munosib mukofotlandi.

Shu kuni Mudofaa vazirligi tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga munosib hissa qo'shgan harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar xizmatchilari va keng jamoatchilik vakillariga "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar a'lochisi" ko'krak nishoni tantanali ravishda topshirildi.

Qurolli Kuchlar Markazi ashula va raqs ansamblini san'atkorlari ijrosidagi konsert dasturi tantana ishtirokchilariga bayramona kayfiyat ulashdi.

Podpolkovnik Gulgora HOJIMURODOVA

Obod yurt – obod maskanlar

Xorazmda Vatan himoyachilariga

yangi xonodon kalitlari topshirildi

14-yanvar – Vatan himoyachilar kuni hamda Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganligining 32 yillik bayrami munosabati bilan Urganch tumanida Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilariga imtiyozli ipoteka kreditlari asosida yangi xonodonlar foydalanishga topshirilishi,

kecha-yu kunduz halovatidan ayrilib, mamlakatimiz tinchligi yo'lida fidoyilarcha xizmat qilayotgan yurtimiz himoyachilar uchun chinakam bayram sovg'asi bo'ldi.

Tumandagi "Yoshlik" mahallasining Mustaqillik ko'chasidagi ilgari foydalanib kelinmagan yer maydonida bugun 5 qavatdan iborat 45 xonodonli yangi turarjoyning buniyod etilishi mamlakatimizda so'nggi 7 yilda amalga oshirilayotgan katta buniyodkorlik ishlarining davomi bo'ldi. Endilikda harbiy xizmatchilar va harbiy pensionerlar bu yilgi Vatan himoyachilar kuni bayramini o'z uyida kutib oladigan bo'ldi.

Yangi obyektni foydalanishga topshirish marosimida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug

qo'shinlari qo'mondoni general-major Farhodjon Shermatov, Xorazm viloyati hamda tuman hokimliklari vakillari, Qurolli Kuchlar faxriylari, xonodon egalari hamda ularning yaqinlari ishtirok etdi.

Qo'mondon o'z nutqida davlatimiz rahbarining tashabbusini bilan so'nggi 6-7 yilda harbiy xizmatchilar va harbiy pensionerlarning ijtimoiy himoyasi masalasida juda katta o'zgarishlar sodir bo'lib, endilikda Vatan himoyachilar uchun ko'p yillik imtiyozli ipoteka kreditlari asosida zamonaviy dizayn, milliy did va barcha qulayliklarga ega bo'lgan yangi uy-joylar qurilib, foydalanishga topshirilayotganini e'tirof etdi. Bu ham bo'lsa, davlatimizning Vatan himoyachilariga bo'lgan g'amxo'rliqi, ularning ijtimoiy himoyasiga bo'lgan e'tiboridan dalolat ekanligini ta'kidladi.

Tantanali tadbir davomida xonodon sohiblariga yangi uylar kaliti topshirilib, ularga yaxshi tilaklar bildirildi. Yangi uy egalarining xonadonlarida ilk mehmonlar yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi uchun qo'llarini duoga ochib, mana shunday yangi uylarda yaxshi kunlar ko'p bo'lishini niyat qilishdi.



Kichik serjant Abdullajon UMARALIYEV
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Ehtirom



Bahrrom ABDURAHIMOV



Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligida bo'lib o'tgan "Askar onalarini sharaflaymiz!" mavzusidagi ma'nnaviy-ma'rifiy tadbir onalar tilagi va askar o'g'lolar maqsadini yuzaga chiqardi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilar kuni bayrami tadbirlari doirasida qo'mondonlikning alohida qo'riqlash va xizmat ko'rsatish bazasi hamda Farg'ona shahrida joylashgan harbiy qismida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan oddiy askarlar va ularning ota-onalari ishtirokida videomuloqot orqali amalga oshirilgan tadbir quvonch va hayajonga boy bo'ldi.

Tadbirda dastlab so'z olgan podpolkovnik Botir Qo'ziyev barcha yig'in ishtirokchilarini xalqimizning sevimli bayrami – Vatan himoyachilar kuni bilan qizg'in muborakbod etdi. Tadbirga taklif etilgan faxriylar ham ezgu tilaklar bildirib o'tishdi. Askar onalari chindan-da, ulug' sharafga munosib ekaniga urg'u berishdi.

Videomuloqot davomida har ikkala tomondan tadbirda qatnashayotgan barcha onalar bolalarining o'zini tutishi, qaddi-qomati, kelajak rejalarida katta o'zgarish bo'lganligini ta'kidlab, komandirlariga minnatdorlik bildirishdi. Onalarning quvonch ko'zyoshlari bilan aytgan tilagi va duolari barchani hayajonga soldi.

– Har bir ona o'g'il-qizini elga manzur, aql-idrokli farzand bo'lishini istaydi, – deydi oddiy askar Diyorbek Mirahmedovning onasi Mahbubaxon opa. – O'g'illari yurt himoyachisi bo'lgan onalarga har doim havas qilganman. Bugun ezgu niyatiga yetgan onalardan biriman. O'g'limning xizmatda erishgan har bir yutug'idan ko'nglim tog'dek ko'tariladi. Buning uchun unga mardlik ilmidan saboq berayotgan barcha komandirlariga ming bor tashakkur.

– Dunyodagi barcha onalar, avvalo, tinchlik bo'lishini tilaydi, – suhabatni davom ettiradi oddiy askar Rahmatulla G'afurovning onasi Oyshaxon opa. – Shunday

Men baxtli onaman, sendek o'g'lim bor,
Jasorat yo'lida toblansin joning.
Bosgan izlaringdan aylay iftixor,
Ontingga aylansin, ahd-u paymoning.

Qurolli Kuchlar akademiyasi katta majlislar zalida muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan askarlar onalari bilan "Askar onalarini sharaflaymiz!" onlayn teleko'priq tadbiri o'tkazildi. Unda respublikamizning turli hududlariga muddatli harbiy xizmatga yuborilgan Toshkent shahrida istiqomat qilayotgan askarlarning ota-onalari ishtirok etdi.



Dastlab tadbirda so'zga chiqqanlar bugungi kunda milliy armiyamiz tubdan o'zgarib, zamonaviy qiyofa aks etgani, harbiy kuch-qudrat jihatidan jahon reytinglariga yuqori o'rinnlarda qayd etilayotganini ta'kidlab o'tdi.

Shundan so'ng tadbirdining asosiy qismiga navbat berildi. Unda Vatan himoyachilarining onalari respublikamizning turli viloyatlarida xizmat qilayotgan farzandlari bilan videokonferens-aloqa orqali diyorlashib, samimiy suhabat qurdilar va o'zlarining sog'inch so'zlarini yetkazdilar. Muddatli harbiy xizmatchilarining

ota-onalari, aka-ukalari, singillari egnida harbiy libos kiyib, sadoqat bilan yigitlik burchini o'tayotgan askarlar bilan dildan suhbatlashar ekan, yaqinlashib kelayotgan Vatan himoyachilar kuni bilan barcha harbiy xizmatchilarini dildan tabriklashdi. Ular bugungi kunda milliy armiyamiz yoshlar uchun haqiqly hayot maktabiga aylanganidan mammun ekanliklarini bildirishdi.

– O'g'lim anchagina ulg'ayibdi. Ko'rkam, baquvvat, og'ir-bosiq va eng muhimmi, dunyoqarashi o'zgargan, – deydi oddiy askar Akram Ahmedovning onasi Bozorxol Boboxonova.

– Uning bizga bo'lgan mehri yanada ortganini, burchini har qanday holatda ham to'laqonli ado etishish eshitib, shunday farzandim borligidan faxrlandim.

Tadbir davomida har bir harbiy qismida namunalni xulqi va harbiy qismdagi faolligi bilan safdoshlariga o'rnak bo'lib kelayotgan bir guruh muddatli harbiy xizmatchilarining ota-onalariiga tashakkurnoma va esdalik sovg'alar topshirildi.

Sherzod EGAMBERDIYEV,
"Vatanparvar"

Mamlakatimizning yetakchi oliy mahorat sport maktablaridan biri hisoblangan Mudofaa vazirligi oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari uchun 32-mavsum tarixga aylandi. Armiyamiz sportchilar 2023-yilgi mavsumni ham ojoyib muvaffaqiyatlar bilan yakunladi.

2023-yil mamlakatimiz sportchilar, shu jumladan Mudofaa vazirligi oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakillari uchun sermahsul bo'ldi. Yurtimiz sportchilar qit'a va jahon championatlari hamda kubok bahslarida, xalqaro turnir va Xanchjoudagi XIX Osiyo o'yinlarida Vatanimiz sharafini munosib himoya qilib, 151 ta oltin, 112 ta kumush, 164 ta bronza, jami 427 ta medalni qo'lga kiritdi. Ushbu muvaffaqiyatlarga Mudofaa vazirligi oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakillari ham munosib ulush qo'shdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan 1993-yilda tashkil etilgan va mamlakatimiz armiyasining sport markazi, milliy terma jamoalarimizning tayanch ustuni sifatida ish yuritayotgan Markaziy harbiy sport klubni, endilikda Mudofaa vazirligi oliy sport natijalarini rivojlantirish markazida 20 tadan ortiq sport turi bo'yicha faoliyat yo'lga qo'yilgan. 2023-yilgi mavsumda MVSM a'zolari basketbol, boks, velosport, dzyudo, yengil atletika, kamondan otish, kurash, merganlik (o'q otish), og'ir atletika, sambo, suv polosi, taekvondo, tennis, trampolin, sharq yakka kurashlari va harbiy-amaliy sport (armrestling, jiu-jitsu, universal jang, qo'l jangi, tosh ko'tarish), erkin kurash, eshkak eshish (baydarka va kanoe), yunon-rum kurashi va qilichbozlik kabi 20 tadan ortiq sport turi bo'yicha xalqaro hamda mamlakat miqyosidagi musobaqalarda qatnashib, jami 669 ta (300 ta oltin, 154 ta kumush, 215 ta bronza) medalga sazovor bo'lishdi. Shundan 290 ta medalga xalqaro maydonda erishilgan bo'lsa, 379 ta medal mamlakat miqyosidagi musobaqalarda qo'lga kiritildi.

Mamlakat miqyosida

Armiyamiz sportchilar 2023-yilgi mavsumda mamlakat miqyosidagi musobaqalarning 185 ta oltin, 75 ta kumush, 119 ta bronza, jami 379 ta medaliga sazovor bo'lishdi. Eng ko'p sovrinlarga qo'l jangi (25 ta oltin, 20 ta kumush, 35 ta bronza, jami 80 ta), yengil atletika (35 ta oltin, 20 ta kumush, 17 ta bronza, jami 72 ta), eshkak eshish (19 ta oltin, 7 ta kumush, 6 ta bronza, jami 32 ta), velosport (19 ta oltin, 11 ta bronza, jami 30 ta), merganlik (8 ta oltin, 5 ta kumush, 7 ta bronza, jami 20 ta), armrestling (10 ta oltin, 5 ta kumush, 4 ta bronza, jami 19 ta), kamondan otish (11 ta oltin, 2 ta kumush, 4 ta bronza, jami 17 ta), biathlon (6 ta oltin, 21 ta kumush, 8 ta bronza, jami 15 ta) va kurash (7 ta oltin, 4 ta kumush, 3 ta bronza, jami 14 ta) sport turlari bo'yicha bahslarda erishildi.

Xalqaro maydonda

Armiyamiz sportchilar xalqaro maydonda ham yuqori mahorat namoyish etishdi. Yigirmadan

ARMIYA SPORTCHILARI

FAOLIYATIDA O'TTIZ IKKINCHI MAVSUM

ARMIYA SPORTCHILARINING
2023-YILGI MAVSUMDA ERISHGAN
MUVAFFAQIYATLARI JADVALI

t/r	Sport turi	2023-yil					
		Mamlakat miqyosida (MM)			Xalqaro maydonda (XM)		
		oltin	kumush	bronza	oltin	kumush	bronza
1	Boks	6	1	2	1	2	2
2	Taekvondo	3	0	0	19	8	16
3	Yunon-rum kurashi	0	0	0	0	0	3
4	Erkin kurash	1	1	1	0	2	0
5	Dzyudo	6	0	0	10	14	10
6	Og'ir atletika	3	0	0	2	2	2
7	Yengil atletika	35	20	17	30	20	15
8	Eshkak eshish (baydarka va kanoe)	19	7	6	3	3	2
9	Basketbol	2	0	0	1	1	1
10	Merganlik (o'q otish)	8	5	7	4	4	2
11	Kamondan otish	11	2	4	0	0	2
12	Trampolin	2	0	0	1	0	0
13	Qilichbozlik	7	1	1	5	2	2
14	Velosport	19	0	11	5	3	10
15	Qo'l jangi	25	20	35	12	15	12
16	Armrestling	10	5	4	4	1	3
17	Universal jang	5	0	5	3	2	5
18	Jiu-jitsu	0	1	3	3	0	2
19	Sambo	0	0	3	0	0	2
20	MMA	7	3	5	4	0	5
21	Kurash	7	4	3	8	0	0
22	Biatlon	6	1	8	0	0	0
23	Stendan o'q otish	2	3	3	0	0	0
24	Pauerlifting	1	1	1	0	0	0
<i>Jami medallar:</i>		185	75	119	115	79	96
<i></i>			379			290	
<i></i>					669		

ortiq sport turi bo'yicha xalqaro musobaqlar, qit'a va jahon championatlari, kubok bahslari va Osiyo o'yinlarida ishtirok etgan MVSM a'zolari 115 ta oltin, 79 ta kumush, 96 ta bronza, jami 290 ta medalni qo'lga kiritishdi. Buni biroz boshqacha izohlaganda, 2023-yili armiyamiz sportchilar dunyo arenalarida yurtimiz bayrog'ining 290 marta yuqori ko'tarilishiga, 115 marta g'oliblik sharafi uchun davlatimiz madhiyasi yangrashiga sababchi bo'lishdi va bu orqali yoshlarimizning milliy g'ururini yuksaltirishga, o'z navbatida, ularni Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariiga sadoqat, milliy qadriyatlarni xizmat qilishdi.

Sermahsullik bobida MVSM yengil atletikachilar faoliyot ko'rsatishdi. Armiyamiz atletlari 2022-yilgi mavsumda O'zbekiston milliy terma jamoasi tarkibida xalqaro miqyosidagi musobaqalarning 9 ta oltin, 10 ta kumush, 4 ta bronza, jami 23 ta medalini qo'lga kiritgan edi. Bu ko'rsatkich 2023-yilgi mavsumda

qariyb uch baravarga oshdi, ya'ni atletlarimiz xalqaro miqyosidagi musobaqalarning 30 ta oltin, 20 ta kumush, 15 ta bronza, jami 65 ta medaliga sazovor bo'lishdi.

MVSM taekvondochilar ham 2023-yilda avvalgi mavsumlardagi kabi g'ayrat ko'rsatishdi. Taekvondo (WT) bo'yicha armiya vakillari 2022-yili O'zbekiston milliy terma jamoasi tarkibida xalqaro miqyosidagi musobaqalarning 17 ta oltin, 6 ta kumush va 14 ta bronza, jami 37 ta medalini qo'lga kiritgan edi. 2023-yilgi mavsumda bu ko'rsatkich son va sifat jihatidan yanada yaxshilandi. Armiyamiz taekvondochilar bu safar xalqaro maydondagi musobaqalarning 19 ta oltin, 8 ta kumush va 16 ta bronza, jami 43 ta medaliga sazovor bo'lishdi. Bu yutuqlarga Ulug'bek Rashitov (-68 kg), Niyoz Po'latov (-63 kg), Jasurbek Jaysunov (-74 kg), Nikita Rafalovich (-80 kg) va Svetlana Osipova (+67 kg) kabi sportchilar katta ulush qo'shishdi. Ular dunyo birinchiligi, XIX Osiyo o'yinlari, qit'a championati va boshqa bir qator xalqaro musobaqlarda ketma-

ket sovrindor bo'lib, bu borada MVSMning boshqa sportchilariga namuna bo'lishdi. 27-dekabr kuni Butunjalon taekvondo federatsiyasi (WT) "Parij - 2024" Olimpiadasi uchun litsenzion reyting ochkolarini jamg'arish davri yakunlangani va u orqali Olimpiada yo'llanmasini qo'lga kiritgan sportchilar nomini e'lon qildi. Unga ko'ra, Ulug'bek Rashitov (-68 kg) va Svetlana Osipova (+67 kg) "Parij - 2024" Olimpiya o'yinlariga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Qayd etish joiz, taekvondochilarimiz birinchi bor reyting orqali ikkita yo'llanmaga ega bo'ldi. Shuningdek, qizlarimiz ham ilk marotaba to'g'ridan to'g'ri Olimpiada ishtiroychisiga aylanmoqda.

2023-yil asosiy negizi MVSM vakillaridan iborat O'zbekiston dzyudo terma jamoasi a'zolari uchun ham sermahsul mavsum bo'ldi. Ayniqsa, 3-5-mart kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan dzyudo bo'yicha "Katta Dubulg'a" turniri, may oyida Qatarning Doha shahri mezonlik qilgan jahon championati, 4-6-avgust kunlari Budapeshtda kechgan "Masters" turkumiga kiruvchi xalqaro turnirda polvonlarimiz yuqori mahorat namoyish etishdi. Yurtimiz dzyudochilar Toshkent "Katta Dubulg'a"sida 3 ta oltin, bitta kumush va 4 ta bronza, dunyo birinchiligidagi 2 tadan kumush va bronza, Budapesht xalqaro turnirida bitta oltin va 2 ta bronza medalga sazovor bo'ldi. Ushbu sovrinlarning aksariyati MVSM vakillari tomonidan qo'lga kiritildi.

Shuningdek, 2023-yilgi mavsumda MVSM qo'l jangi ustalarini xalqaro miqyosidagi musobaqalarning 12 ta oltin, 15 ta kumush, 12 ta bronza, jami 39 ta, velosportchilar 5 ta oltin, 3 ta kumush, 10 ta bronza, jami 18 ta, merganlar (o'q otish) 4 ta oltin, 4 ta kumush, 2 ta bronza, jami 10 ta, universal jangchilar 3 ta oltin, 2 ta kumush, 5 ta bronza, jami 10 ta, qilichbozlar 5 ta oltin, 2 ta kumush, 2 ta bronza, jami 9 ta va kurashchilar 8 ta oltin medaliga sazovor bo'lishdi. Xalqaro kurash assotsiatsiyasi (IKA) 2023-yilgi sport mavsumini sarhisob qilish asnosida yilning eng faol sportchilar nomini e'lon qildi. Unga ko'ra, MVSM vakili Muhsin Hisomiddinov "2023-yilning eng yaxshi sportchisi", deya e'tirof etildi.

Shunday qilib, mamlakatimiz armiyasining sport markazi, milliy terma jamoalarimizning tayanch ustuni sifatida samarali faoliyat yuritib kelayotgan Mudofaa vazirligi oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi uchun 32-mavsum tarixga aylandi. 1992-2023-yillarda mobaynida armiyamiz sportchilar mamlakat miqyosidagi musobaqalarning 6 212 ta oltin, 4 202 ta kumush, 3 844 ta bronza, jami 14 258 ta medaliga sazovor bo'lishdi. Xalqaro maydonda esa ular tomonidan 1 507 ta oltin, 1 245 ta kumush, 1 503 ta bronza, jami 4 255 ta medal qo'lga kiritildi. Ortida qolgan 32 ta mavsum davomida armiyamiz sportchilarining muvaffaqiyatlari evaziga dunyo arenalarida 1 507 marta davlatimiz madhiyasi yangrashi, ozod va obod Vatanimiz yutug'i hamda timsoli sifatida milliy bayrog'imiz 4 255 marta baland ko'tarildi. Xalqaro va mamlakat miqyosidagi musobaqalarda qo'lga kiritilgan jami medallar soni esa 18 513 tani (7 719 ta oltin, 5 447 ta kumush, 5 347 ta bronza) tashkil etdi.

Kelajagimiz egalari



Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Xayrobod garnizonida joylashgan harbiy qismida o'tkazilgan harbiy-vatanparvarlik festivali yoshlarning ona Vatanga sadoqat va yurt tinchligiga daxldorlik tuyg'ularini yanada oshirishga xizmat qildi.



Festival ishtirokchilari harbiy orkestr kuy-sadolari ostida kutib olindi. Tadbirda polkovnik Po'latjon Sativaldiyev so'z olib, milliy armiyamiz saflarida har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, shijoatl yoshlarni birlashtirish, ularning jismoniy va intellektual salohiyatlarini ro'yobga chiqarish har birimizning burchimiz ekanini va shu yo'lda yoshlar tasavvurini kengaytirishda bunday tadbirlarning ahamiyati katta ekanligi to'g'risida to'xtalib o'tdi.

Festivalning badiiy qismida yig'ilganlarga jadidlar hayotidan hikoya qiluvchi sahna ko'rinishi

namoyish etildi. Ma'rifatparvarlarimiz tilidan yangragan monolog va dialoglar yoshlar qalbiga faxr-iftixor ulashdi.

Festival davomida O'zbekiston Respublikasi mudofaafiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti hamda harbiy qism texnikalari va quroslasha ko'rgazmalari yoshlar e'tiboriga havola etildi. Milliy sport musobaqalarida ishtirok etgan yoshlar o'z mahoratlarini namoyish etishdi. Qorabayir otlari ustida savlat to'kib turgan, mahorat bilan ot choptirayotgan Alpomish va

Barchinoy, Jaloliddin Manguberdi siymolari yoshlarga qahramonlikdan so'zladi.

Harbiy qismida tashkil etilgan "Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!" shiori ostida o'tgan armrestling, arqon tortish, stol tennisi, kamondan o'q otish, shaxmat singari o'ndan ortiq sport turi bo'yicha bahslarda faol ishtirok etgan yoshlarga diplom, vaucher hamda esdalik sovg'alar topshirildi.

III darajali serjant Akbar AHMEDOV
Termiz garnizoni

Unutilmas saboq

Yoshlik va donishmandlik birlashuvi



Tadbirda Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari tizimlarida ko'p yillik mehnat va hayotiy tajribaga ega bo'lgan insonlar, jangchi-faxriylar, ayni vaqtida armiya saflarida xizmat qilayotgan ofitser, serjantlar askarlarga bugungi osoyishtaligimiz eng oliy ne'matligi, uni asrab-avaylash hamda kelajak avlodga yetkazish har birimizning muqaddas burchimiz ekanini uqtirishdi.

Ayniqsa, ilgari mazkur harbiy qismida xizmat qilib ketgan faxriy ustozlarning fikrlari hayajonli bo'ldi. Zero so'nggi yillarda mazkur harbiy qismida amalga oshirilgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari ilgari orzudek tuyulgan armonlarning ro'yobga chiqqani faxriylarda katta taassurot uyg'otdi.

Suhbat davomida harbiy xizmatchilar ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan hamda bugun armiya hayotida hamnafas yashab kelayotgan

ustozlar bilan muloqot qilib, savollariga javob olishdi. Birgalikda qo'shiqlar kuylab, xizmatdagi yutuqlari haqida o'rtoqlashdi.

Shuningdek, harbiy qism mehmonlari yurt himoyachilari bilan shaxmat-shashka bo'yicha do'stona turnirida ishtirok etib, adabiyotlarga boy kutubxonada mutolaa zavqi haqida suhbatlashdi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Andijonlik yoshlar bilan uchrashuv

O'zbekiston Respublikasi mudofaafiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov, tashkilotning Andijon viloyati kengashi raisi Sardor Qodirov va Bo'ston tumani hokimi Sanobarxon Nosirova yoshlar bilan bevosita muloqotda bo'ldi.



Rahbar va yoshlar uchrashuvi shaklida o'tgan mazkur tadborda H. Botirov yig'ilganlarga "Vatanparvar" tashkiloti tarixi va bugungi kundagi faoliyati to'g'risida ma'lumotlar berdi. Yoshlar o'zaro muloqotlar asnosida tashkilot tomonidan aholi, ayniqsa yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha muhim ko'nikmalarga ega bo'lismi.

Tashkilot tizimida sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha tashkil etilgan sekiyalarda shug'ullanib, O'zbekiston, MDH, Osiyo va jahon championatlarida g'oliblikni qo'liga kiritgan va yuqori o'rinalarni egallagan ko'plab sportchilar davlatimiz rahbarining tegishli qaroriga muvofiq, olyi ta'lim muassasalariga imtihonlarsiz qabul qilinayotganligi ko'pchiliklari qiziqish uyg'otdi.

"Vatanparvar" tashkilotining respublika bo'ylab 200 dan ortiq o'quv muassasasida avtomototransport haydovchilarini hamda texnik xizmat ko'rsatish va murakkab texnikalarni boshqarish mutaxassislarini tayyorlanishi, ushbu muassasalarining zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan jihozlangan kurslarida fuqarolar malakali ustozlar yordamida turli kasblarni egallashlari mumkinligi bildirildi. Umuman olganda, tashkilot respublika miqyosida bir yilda o'rtacha 150 mingdan ortiq turli texnik kasb mutaxassisini yetkazib beradi.

Tadbir davomida Bo'ston tumani hokimi Sanobarxon Nosirova ham hokimlik tomonidan yoshlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar va keng imkoniyatlar to'g'risida aytib o'tdi.

Yakunda "Vatanparvar" tashkiloti faoliyatida faol bo'lgan yoshlarga esdalik sovg'alar topshirildi.

**O'zbekiston Respublikasi mudofaafiga ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati**

"Eng yaxshi tasviriy san'at asari" tanlovi



Vatan tasvirini biror suratga joylamoq ishtiyogi har qanday rassomni bedor qiladi. Ayniqsa, uning sadoqatli farzandlari faoliyatini madh etish – bu katta jasorat. Toshkent fotosuratlar uyida bu kun ana shunday ruhdagi suratlar o'rin oldi. Aslida bu tashabbus O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilar kuni munosabati bilan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari, respublikamizda yashab ijod qilayotgan ijodkorlar o'ttasida o'tkazilgan "Mening armiyam – mening faxrim!" mavzusidagi "Eng yaxshi tasviriy san'at asari" tanlovi natijalaridir.

VATAN SURATINI CHIZMOQ ISTASANG...

G'oliblarini taqdirlash marosimi esa ular ichidan eng yurakka yaqini, ma'no ifodaviyligi yuqori, maftunkor ijod namunalari e'tirofi bilan boshlandi. Marosimda Mudofaa vazirligi mas'ul ofitserlari, kuch tuzilmalari vakillari, harbiy xizmatchilar hamda faol yoshlar jam bo'ldi.

Tanlov shartlari keng qamrovli bo'ldi, ya'ni ishtirokchilar Vatan himoyachilarining ijobji yuqori, maftunkor ijod namunalari e'tirofi bilan boshlandi. Marosimda Mudofaa vazirligi mas'ul ofitserlari, kuch tuzilmalari vakillari, harbiy xizmatchilar hamda faol yoshlar jam bo'ldi.

Tanlovga jami to'rt yuzdan ziyod ijodiy ish qabul qilinib, ishtirokchilar professional va havaskorlik yo'nalishlari bo'yicha nufuzli hakamlar hay'ati tomonidan baholanib borildi. Natijalar esa quyidagicha ko'rinish oldi.

Professional ijodkor nominatsiyasida:

- 1-o'rin – oddiy askar Sherzod Rashidov (*Sharqiy harbiy okrug*);
- 2-o'rin – oddiy askar Kamronbek Temirboyev (*Sharqiy harbiy okrug*);



– 3-o'rin – kichik serjant Nizomjon Turaboyev (HHM va HHK qo'mondonligi).

Havaskor ijodkorlar nominatsiyasida:


- 1-o'rin – oddiy askar Muhamadiyor Komiljonov (*TOQQ*);
- 2-o'rin – kichik serjant Ergash Muratov;
- 3-o'rin – 208-maktab o'quvchisi Safina Safarova.

Bundan tashqari, 20 nafar tanlov ishtirokchisi Mudofaa vazirligi faxriy yorliqlari bilan taqdirlandi.

Tadbirning badiiy qismida Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambl xonandalari, harbiy orkestr jamoasi o'z chiqishlari bilan barchani xushnud etdi. G'olib va sovrindorlar o'sha kuni o'z ijodiy ishlarining e'tirofidan ulkan zavq tuyushgan bo'lsa ne ajab.

O'qilmagan kitob o'ch oladi

Kitob haqida o'ylaganimda ilk marotaba qo'llimga olganim – "Alifbe"ni ko'z oldimga keltiraman. Nazarimda, qalb ko'zlar ochilib, ochunni o'zgacha idrok eta boshlagan, xat-savodi chiqib, harfni harfga qo'sha oladigan har bir inson "Alifbe"ning xizmatini unutmasa kerak.



KITOBNI SEVMAY QO'YAMIZMI?



Allomalarning zikr etishlaricha, kishining kitobga bo'lgan e'zoz-hurmati uning ko'nglida chappar urib turgan go'zallikkha, so'z qudratiga, vogelikka, insonning qalb silsilasiga, shuurning nazokatga moyilligiga bog'lanib ketadi. Shu bois otabobolarimiz san'at darajasiga ko'tarilgan asarlarni kitob holida asrash choralarini axtarganlar. Umumbashariyat qadriyatimiz "Avesto"ning aynan 12 ming qoramol terisiga yozdirilgani ajodolarimiz aql-zakosining teranligidan dalolat beradi. Chunki zardushtiylik dini hukmronlik qilgan davrlarda qog'oz sanoati istifoda etilmagandi. Davrlar o'tishi, kishilik taraqqiyotining yangi bosqichga ko'tarilishi kitobat san'atining yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

XV asr muarixi Xondamirning shahdat berishicha, o'sha davrlarda asar mualliflari uning qoralama nusxasini xattotga

topshirgan. Xattot o'zining latif husnixat bilan asarni qaytadan ko'chirib chiqqan. Bu borada yirik xattotlik mактабига asos solgan Sultonali Mashhadiyning ulkan sa'y-harakatlarini ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi. Xitoy yoki Samarqandning sifatli qog'ozlariga tushirilgan asar lavvohga berilgan. U o'z o'rниda jildiga hayvon terilaridan chidamli charm muqovalar ishlagan. Yarim tayyor holiga kelgan kitob, musavvir qo'liga o'tgan. Sharq musavvirlari mumtoz badiiyat sirlarini shoirlardan kam idrok etishganlar. Shu bois ular sahifalarning qismiga, matnda bayon etilgan holatdan kelib chiqib, miniyaturlar chizishgan.

XV-XVI asrlarda Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari mashhur shoirlarning asarlariga go'zal suratlar ishlashni yuksak san'at asari darajasiga olib chiqishgan. Bitta kitobga kamida o'ndan ortiq qo'ligul ustuning mehnati, qalb qo'ri jobajo bo'lgani uchun ularning bahosi ham anchagina baland hisoblangan. Shu bois Atoiy, Durbek, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bobur singari so'z zargarlarining asarlari kamdan kam kishilarning javondagi javohiriga aylangan.

Bugun esa vaziyat butkul o'zgacha. Ko'plab nashriyotlar biryo'la minglab kitoblarni xalq mulkiga aylantirishga qodir. Qog'oz taqchilli muammosi ham hal etilgan. Faqat bir muammo: kitob mutolaasiga bo'lgan e'tibor susaygandek. Davrlar bo'ldi, odamlar kitoblarni uylariga zeb uchun saqlaydigan bo'ldilar. Kitob mutolaasi, kitobga bo'lgan e'tibor haqida gap ketganida, O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobidagi bir lavha meni bot-bot o'ziga tortaveradi... To'ychiboy to'y qiladi. To'y tugagach, qozon tagida bir kapgir ham osh qolmaganini aytib, maqtanib yuradi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, seziladiki, to'y xarajatlarining barchasi qarz-qavola hisobiga qilingan ekan. Qarz berganlar o'zlarining haqlarini so'rab, eshik qoqaverishadi. To'ychiboyning ikki oyog'i bir etikka tiqilib qolgan. Boshi qotgan. Boshini yopsa oyog'i, oyog'ini yopsa boshi ko'rinish qoladi. Hayot ziddiyatlaridan to'yib ketganidan o'zini osmoqchi, shu bilan hammasidan qutilmoqchi bo'ladi. Erining o'limini istamagan ayoli esa uni zo'rg'a ushlab qoladi. Shum taqdирning kulfatlaridan noliy-noliy ayvon tomonga mushtini bo'laytirib, po'pisa qilishga o'tadi. Ma'lum bo'lishicha, To'ychiboyning do'konga non olib kelish uchun yuborilgan qizi non o'miga kitob xarid

qilibdi. Onasining qahr-u g'azabga kelishi shundan ekan. Muallif bu holni g'oyat afsus, nadomat bilan hikoya qiladi. "Shunda ilk bor o'zbek bo'lganimga uyalib ketdim", degan iqror adibning qalb titrog'i bo'lib yangraydi.

Afsuski, oramizda To'ychiboyning ayoliga o'xshaganlar bor. Ular hali ham siz-u bizga baqamt. "Talabalik yillarim puldan qiynalib qoldim, - deya xotirlaydi yaqin o'rtoqlarimdan biri. - Talaba bunday paytda nima qiladi? Uyidan yordam kelgunicha birovning og'irini yengil qilib, halol non topadi. Shunday qilib Chilonzorda yashaydigan bir ayolning uyida ishlashimga to'g'ri keldi. Arzimagan ish haqiga kelishgan holda xizmatga yollandim. Harna yomon kunga yasoq. Shunda nogohon yerto'ladagi liq to'la kitoblarga ko'zim tushdi. Ular orasida Alisher Navoiy, Umar Hayyom, Shekspir, Pushkin, Aleksandr Blok, Lorka, Servantes asarlari bor edi. Ko'zlarimga ishonmasdim. Xursand bo'lganimdan o'zimni qo'yarga joy topolmay qoldim. Shoshapisha so'roqladim: "Mana shu kitoblarining hammasini berasizmi? Bugungi ish kunim uchun sizdan sariq chaqa ham olmayman". "Juda yaxshi, - dedi ayol. - Olsang, olaver. Menga keragi yo'q. Qaysi bir ijarrachidan qolib ketgandi. Sen olmasang, baribir makulatura do'koniga topshirib yuborardim".

Do'stimning hikoyasini tinglab bo'lgach, o'sha ayol bilan g'oyibona muloqat qilaman. "Rahmat sizga, - deyman unga. - Sizning johilona qaroringiz, kitobga beparvoligingiz tufayli do'stim bugun fan nomzodi. Agar o'shanda kitoblarni ko'zingiz qiyaganida uning dissertatsiyasi bir necha yilga cho'zilarmi?! Nima bo'lganda ham sizga rahmat!"

Endi hammamizni tashvishlantirib kelayotgan savol: kitobga e'tiborning susayayotgani haqida to'xtalib o'tsak. Ko'pchilik buning sababi kitoblar narxining qimmatligini vaj qilib ko'rsatmoqda. Bizningcha, bu noto'g'ri. Chunki mamlakatimiz kitob do'konlaridagi narxlar ancha mo'tadir, kishini cho'chitadigan alpozda emas. Farzandlarimizning falon so'mlik kiyim-boshlari uchun pulni ayamayotgan ota-onalar kitoblar narxining qimmatligidan tashvish chekmasalar ham bo'ladi.

"Interfaks" xabariga ko'ra, keyingi o'n yil ichida AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya singari rivojlangan mamlakatlarda kitob mutolaasi yetti foizga kamaygan. O'zining robotlashtirish tizimiga ega bo'lgan Yaponiya ham yoshlarni mexanik qurilmalardan kitobga

qaytarish choralarini axtarmoqda. Shu ma'noda gruzin xalqining bir ibratlari tadbiri kishini quvontiradi. Gruzinlar yosh kelinkuyovning sepiga Shota Rustaveli qalamiga mansub "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" asaridan bir nusxa solib qo'yishni afzal biladilar. Shu orqali ular katta hayot ostonasida turgan yoshlarga erk, ozodlik, hayo, vafo, sadoqat, ezgulik, matonatdan saboq berish bilan birga - kitobga bo'lgan cheksiz muhabbatini namoyon etadi. Beixiyor xayolga tolasan: qani endi o'zbek qizlarining seplarini Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"i bezasa, ikki yosh sadoqatning sohir so'zdagi badiiy tajassumi Otobek va Kumushdan vafoning uzun, ayni chog'da mashaqqatli yo'lini anglab yetsa... Shu o'rinda e'tiboringizni hamkasblarimizdan birining hikoyasiga qaratsam.

- "Mas'ulroq lavozimda ishlaydigan do'stim tug'ilgan kunini nishonlaydigan bo'ldi, - deydi u. - Ziyofatga aytildim. Keyin o'yab qoldim. Unga qanday sovg'a ulashsam ekan? O'lay-o'lay shunday qarorga keldim: kitob sovg'a qilaman. Chunki ikkimiz bolalikning nurafshon osmonida "Tom Soyerning sarguzashtlari", "Don Kixot", "Robinzon Kruso", "Zumrad va Qimmat", "Gulliverning sayohatlari"ni talashib o'qirdik. Ha, kitob sovg'a qilaman. U xursand bo'ladi.

Ochig'i, ziyofatning bu qadar quyuq bo'lishini kutmagandim. Har xil yaltir-yultur kiyinganlar, serbezak, serhasham sovg'alar ko'zni qamashtirardi. Men esa bo'g'ilardim. Nafasim bo'g'izimga tiqildi. Mavridi kelganida Shekspirning uch tomlik saylanmasini (Jamol Kamol tarjimas) topshirdim. Gulduros qarsak uchun ko'tarilgan qo'llar nomiga bir-ikki urib qo'yildi. Ahli davraning ensasi qotgani shundoq ko'rini turardi. O'rtog'imizning rangi qizardi. Lablari titrab, nomiga bo'lsa-da, "rahmat, rahmat" deb qo'ydi. Ziyofat tugab, qaytayotganimizda kuzatib qo'yishni "unutib" qo'ydi. Keyinchalik uni majlislarning birida uchratib qoldim. Meni ko'rdi-yu, lekin o'zini ko'rmaganga oldi.

Binobarin, yuqoridagidek kitobning buyuk ma'naviy qudratini arzimas moddiy qiyamatga almashtirib qo'yadiganlar ham topiladi. Ammo asl aynimaydi. Kitobning bashariyat kamolotiga qo'shgan va qo'shajak hissasi Iskandar mayog'idan-da, cho'ng bir nuqtada ko'zga tashlanib turaveradi.

O'zbekiston Respublikasi Qurollari
Kuchlari tashkil etilganligining
32 yilligi hamda Vatan
himoyachilari kuni munosabati
bilan yoshlarni ijtimoiy
foydali, shuningdek ommaviy
vatanparvarlik ishlariga keng
jalb etish maqsadida joylarda
harbiy-vatanparvarlik va
ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bo'lib
o'tmoqda.

HAMKORLIKda KATTA KUCHGA AYLANAMIZ!



Jumladan, O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Sirdaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Sirdaryo tumani o'quv sport-texnika klubini tomonidan "Vatanparvarlik oyligi" doirasida o'quvchi-yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirish, ularni harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalash maqsadida "Yangi O'zbekiston armiyasi mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir!" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir va ochiq eshiklar kuni o'tkazildi. Bundan tashqari, o'quvchi-yoshlar o'rtasida turli mavzularda ko'rik-tanlovlardan hamda sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha sport musobaqlari ham tashkil etildi.

musobaqalar ni'am tashkil etdi.
— Ushbu muhim sana munosabati bilan o'tkazilgan uchrashev, tadbirlar va davra suhbatlarida keng jamoatchilik vakillari, harbiy xizmatchilar hamda faxriylar tomonidan

ishirotkchilarga yurtimiz tinchligi va osoyishtaligini saqlashda, ayniqsa yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mamlakatimiz Qurolli Kuchlarining o'rni va ahamiyati tushuntirildi, – deydi O'STK boshlig'i Galib Amzayev. – Tuman hokimligi, mudofaa ishlari, Milliy gvardiya, maktab va maktabgacha ta'lif tashkilotlari, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan bunday tadbirlarda yoshlarning keksa avlod vakillari bilan uchrashuvlari o'ziga xos an'anaga aylangan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Sirdaryo tumani o'quv sport-texnika klubida ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash, shuningdek sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida ham muayyan ishlar amalgga oshirilmogda. Chunonchi, o'tgan yil mobaynida Shaxboz Nazarov, Alisher Beknazov, Rustam Atabayev, Mamadali Bakaxolov, Mixail Ganivev, Botir Mahkamov, Orif

Satkinov singari o'qituvchi va amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-ustalar hamda sport murabbiyi M. Haydarovning sa'y-harakatlari bilan 350 nafarga yaqin "B", "BC" toifali haydovchi hamda mohir sportchilar tayyorlashga erishildi. Shuningdek, tuman O'STK va hududdagi harbiy qismlarning biri bilan hamkorlik memorandumi imzolanib, muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan askarlar va harbiy xizmatchilarning 44 nafari ixtiyoriy ravishda tashkilotning "BC" toifali haydovchilik kurslarida ta'lim oldi.

Bugungi kunga kelib, klub qoshida faoliyat ko'rsatayotgan "Havo miltig"idan o'q otish", "Yozgi biatlon" kabi seksiyalarda qatnashayotgan yoshlarning safi yil sayin kengayib borayotganligi quvonarli. Bunda albatta, klubning davlat va jamoat tashkilotlari, harbiy qism hamda muassasalar bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlik aloqalari muhim o'rinn tutmoqda.



“Vatanparvar” tashkiloti Sirdaryo tumani o‘quv sport-texnika klubi jamoasi barcha yurtdoshlarimizni, diyorimiz tinchligi va osoyishtaligi uchun matonat bilan xizmat qilayotgan harbiylarni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligi va 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni bilan samimiy tabriklaydi.

Bayramingiz muborak bo‘lsin, tinchligimiz posbonlari!



Mulohaza

QADRIYATLAR O'LMASA, YASHAYMIZ!

O'zbekistonda davlat mustaqilligi e'lon qilinganidan keyin islohotlar orqali kun tartibiga demokratik jamiyat qurish masalasi qo'yildiki, mustaqillikning ilk davridan boshlab amalga oshirilgan demokratik o'zgarishlar tabiiy ravishda milliy xarakter kasb eta boshladi. Har qanday davlat, birinchi navbatda, o'zining yuksak madaniyati hamda ma'naviyati bilan kuchlidir.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan har qanday ijtimoiy, moddiy, ma'naviy hodisa o'tmishda ijobiy ahamiyat kasb etgani uchungina emas, balki kelajak istiqboli uchun yangi imkoniyatlar yaratib berishga qodir bo'lganligi sababli ham qadriyat deb ataladi. Boshqacha aytganda, qadriyatlar jamiyat va ma'naviy taraqqiyotning zarur mahsulidir.

Qadriyatlar muammosi Platon davridan boshlab tadqiqotlar obyekti sifatida yashab kelmoqda. Nemis olimi Immanuel Kant birinchi marta insonni qadriyatlarni aniqlash asosida talqin etdi.

Inson ikkita olamga mansub mavjudot sifatida tushuniladi:

1. Erkin bo'ligan, hali o'z yo'lini anglab yetmagan, o'z instinktiga ergashib yuradigan tabiat olami. Bu olamda qadriyatlar mavjud bo'lmaydi.

2. Erkinlik va idrok qilish olami. U o'zining taqdirini belgilaydi va uning o'zi belgilagan ideallari, maqsadlari asosida quradi. Bu olamda qadriyatlar mavjud, lekin ular ochiq mujassam bo'lmaydi, balki maqsad sifatida namoyon bo'ladi. Qadriyatlarni Kant talqini bo'yicha idrok etishda uning sof subyektiv hosila ekanligi, ya'ni ularni har bir shaxs o'z hayoti qadriyatlarini o'zi aniqlashi ilgari suriladi.

Fikrimizcha, qadriyat bu – tarixiy taraqqiyot jarayonida kishilar tomonidan yaratilgan, moddiy va ma'naviy boyliklar bo'lib, u inson hamda insoniyat uchun ahamiyat kasb etib, ularning manfaati va ehtiyojini qondirish: takomillashuv, kelajak avlodning ijodiy o'sishini rag'batlantirish omilidir.

Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir.

Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lмаган millat yo'q. Milliy qadriyat millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati va madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Milliy qadriyatlardan millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega jihatlar, xususiyatlar, moddiy va ma'naviy boyliklar. Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik hamda totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birlashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlardan tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy qadriyatlardan turmush tarzimiz, ma'naviy qiyofamiz, an'analarimiz va o'zligimizni anglashga yordam beradi va bu borada xalqni xalq, millatni millat sifatida birlashtiradi. Zero o'z qadriyatlari va qadrini bilgan xalq olomonga aylanmaydi; buyuk ishlarga qodir ekanini his qiladi, istiqolni omon saqlaydi, farzandlarining kamoloti uchun qayg'uradi va kurashadi. Aynan shuning uchun ham milliy qadriyatlardan jamiyatni yangilashga xizmat qiluvchi muhim ma'naviy omil hisoblanadi.

Hozirgi kunda globallashuv jarayonining tezlashishi hisobiga dunyo xalqlari o'rtaqida o'zaro aloqalar ham ortib bormoqda. Tabiiyki, O'zbekiston ham bundan chetda turgani yo'q va bu holat yoshlarimiz tarbiyasiga, fikrlashiga umuman olganda hayot tarziga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Barchaga ma'lumki, biz axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yashayapmiz va doimiy ravishda internetdan, axborot tizimlaridan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanamiz, turli xil ko'rsatuv, reklama hamda kinolar

tomosha qilamiz. Buning natijasida ma'naviy hayotimizga ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lgan turli qadriyatlarning turmush tarzimizga kirib kelishiga imkoniyat va sharoit yaratib beramiz.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosи, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda.

Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda bloger deb ataluvchi ba'zi bir qo'shtirnoq ichidagi "ommaviy madaniyat"ni targ'ib qilayotgan yoshlarning internet foydalanuvchilariga bildirayotgan postlari, videolar o'smirlar, o'spirinlar ongiga, psixikasi va tarbiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotgani achniarli holat.

Yoshlarimiz voqeа-hodisalarini to'g'ri talqin qila olishi, ularga xolis munosabat bildira olishi muhim ahamiyatga ega. Bunda esa, albatta, oiladagi tarbiya, shuningdek maktabgacha ta'lim hamda maktab, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ta'lim jarayonining roli katta ekanini ko'rishimiz mumkin.

Bola yosh nihol, qayoqqa egsa, shu tomonga qarab o'saveradi. Yoshlarimizga berilayotgan va kelgusida beriladigan tarbiya yurtimiz kelajagi hamda taqdirini belgilab beradi.

**Olima UBAYDULLAYEVA,
Qurolli Kuchlar Harbiy meros
va zamonaviy tadqiqotlar instituti
kichik ilmiy xodimi**

Военная наука

О РОЛИ ПОДГОТОВКИ ВОЕННО-НАУЧНЫХ КАДРОВ ВЫСШЕЙ КВАЛИФИКАЦИИ В УКРЕПЛЕНИИ ОБОРОНОСПОСОБНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Сложный и динамичный характер современной служебно-боевой деятельности, использование в ней новейших информационно-коммуникационных технологий, образцов вооружения и военной техники, а также потребность Вооруженных Сил в инициативных, грамотных специалистах обуславливают объективную необходимость совершенствования системы профессиональной подготовки военных специалистов высшей квалификации.

В настоящее время неизмеримо возрастает роль военной науки в обеспечении обороноспособности государства. В деле укрепления обороноспособности страны и строительства национальной армии важное место отводится формированию собственной военно-научной школы, которая призвана подкрепить усилия главы государства глубоко просчитанными и обоснованными предложениями по реформам.

Базовой основой этой работы стали законы Республики Узбекистан «О науке и научной деятельности», «Об инновационной деятельности», а также «Концепция развития науки до 2030 года». Благодаря этим и другим принимаемым на государственном уровне организационным и практическим мерам в Узбекистане выстроена стройная система непрерывного военного образования, подготовки военно-научных и педагогических кадров.

Сегодня на новом этапе развития военной науки определены актуальные направления военно-научных исследований и подготовки военных научных и научно-педагогических кадров высшей квалификации. Расширился спектр и тематика научно-исследовательских разработок, выработан действенный механизм скоординированного планирования, методического руководства и практической реализации результатов исследований.

В целях кардинального повышения качества и эффективности системы подготовки и аттестации научных и научно-педагогических кадров высшей квалификации, дальнейшего совершенствования сферы послевузовского образования,

расширения возможностей для всесторонней реализации интеллектуального потенциала молодежи в научно-исследовательской деятельности в нашей стране с 1 июля 2017 года введена двухуровневая системы послевузовского образования:

- базовая докторантурা – с защитой диссертации и присуждением ученой степени доктора философии (PhD) в соответствующей отрасли науки;
- докторантурা – с защитой диссертации и присуждением ученой степени доктора наук (Doctor of Science) в соответствующей отрасли науки.

В настоящем время в Академии Вооруженных Сил функционирует базовая докторантурата, в которой проходят подготовку 15 офицеров по очной форме обучения, более 220 офицеров и служащих являются самостоятельными соискателями.

В 2023 году 11 офицеров защитили диссертации (PhD), 2 офицера подготовили диссертации к защите, принятые в базовую докторантурату 5 офицеров.

Несмотря на то, что, военная наука получает все

большее развитие, требуется активизировать военно-научную деятельность в Вооруженных Силах. Этому будут способствовать, на наш взгляд, следующие меры:

- осуществлять целенаправленную работу по выявлению выпускников Академии, других ВВОУ, офицеров войск, склонных к научной и научно-педагогической деятельности, готовить их к последующему обучению в базовой докторантуре;
- активизировать работу по привлечению офицеров командного состава, преподавателей Академии, других ВВОУ, к работе над диссертациями в форме соискательства;

● стимулировать военнослужащих и служащих, а также слушателей и курсантов, добившихся существенных результатов в научной деятельности и представивших практические значимые разработки, которые при внедрении в практику дадут ощущимый эффект в повышении уровня боевой подготовки и других аспектов деятельности войск;

- проводить конкурсы на лучшие научные работы и рационализаторские

предложения, выставки, пропагандировать научные изыскания в военных средствах массовой информации;

- активизировать изобретательскую и рационализаторскую работу в войсках, организациях и образовательных учреждениях Министерства обороны, способствовать развитию неординарного мышления военнослужащих, вовлечению их в творческий процесс создания новых устройств, систем, методик, технологий в военной сфере;

● шире практиковать контакты ВВОУ с гражданскими ВОУ, которые обладают значительным научным потенциалом, а также с зарубежными ВВОУ и военно-научными центрами.

Таким образом, подготовка научных и научно-педагогических кадров высшей квалификации будет способствовать укреплению обороноспособности Республики Узбекистан.

**Александр НЕГРИЕНКО,
кандидат технических
наук, доцент, старший
научный сотрудник Института
военного наследия и
современных исследований
ВС РУ**

Jurnalistlar zirhli texnikalarini boshqardi

Qurolli Kuchlar akademiyasida ommaviy axborot vositalari vakillari uchun press-tur o'tkazildi. "Yangi O'zbekiston armiyasi mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir!" mavzusidagi mazkur tadbir Mudofaa vazirligi va Qurolli Kuchlar akademiyasi, MV Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti hamda O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi va uyushma qoshidagi harbiy-vatanparvarlik kengashi bilan hamkorlikda tashkil qilindi.



kursantlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ta'lim jarayonlari haqida hikoya qiluvchi videorolik namoyish etildi.

Namoyishdan keyin mehmonlar oliy harbiy ta'lim muassasasi bo'ylab ekskursiya qilishdi. Ekskursiya davomida OAV vakillari akademiya tarix muzejidagi eksponatlar, axborot-



Jangovar sadolar ostida kutib olingan jurnalistlar dastlab akademiya saf maydonida harbiy orkestr, Faxriy qorovul va vzvod bo'linmasining qo'l jangi bo'yicha ko'rgazmali chiqishlaridan bahramand bo'lishdi. So'ng madaniyat markazida ular uchun akademiya faoliyati, u yerda



resurs markazidagi sharoit, kursantlar yotoqxonasidagi qulayliklar, "Amir Temur", "Bobur", "Jaloliddin Manguberdi" tematik sinflari va Psixologik tayyorgarlik markazi hamda sport majmuasi faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Ekskursiya jurnalistlar uchun esda qolarli va qiziqarli taassurotlarga boy bo'ldi. Chunki shu kuni ular akademiya faoliyati bilan yaqindan tanishish asnosida xuddi sharafli soha vakillaridek harbiy va zirhli texnikalar trenajyorlarida texnikani boshqarishdek murakkab va mas'uliyatli amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etib, "PKST-2" trenajyoridan otish bo'yicha o'zaro bellashdi. Musobaqa natijalariga ko'ra, g'olib va sovindorlar tashkilotchilar tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

**Podpolkovnik
Gulnora HOJIMURODOVA**



@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririysi bilan bog'lanish uchun telegram bot



**SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI**



MUASSIS

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

Tahririyat kengashi:
general-major Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otobek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo'lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov
Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva
Musahih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-5680
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 34 704 nusxa
Bosishga topshirish vaqt: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiha "O'zbekiston" NMU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyundan chiqa boshlagan.

Nashr ko'satkichi: 114.
Bahosi: Kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:
100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya